



# Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid\_uz

TALQIN

## “SENDAN VATAN DEGAN BOG‘ QOLSIN, EY DO‘ST”

Davlatimiz rahbarining tabiatni, ekologiyani muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlari zamirida xalqimizni iqlim inqirozidan himoyalash maqsadi yotibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning kuni kecha “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida ishtirok etib, Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berishi ortida ham ana shu ezgu maqsad mujassam.

Yashirishning hojati yo'q, dunyoning ko'plab hududlarida insonlar ziroat va chorvachilikda foydalanib kelgan yerlar yaroqsiz holga kelgan, ayniqsa, oxirgi yillarda saholashish oqibatlarini yaqqol sezilyapti. Bu hududlar orasida, afsuski, O'zbekiston ham bor. Mamlakatimiz jahonda keskin cho'llashayotgan bir nechta mintaqadan biri. Yer saholashsa, na dehqonchilik, na chorvachilik qilib bo'ladi. Yashash qiyinlashadi, oziq-ovqat qimmatlashadi, xalq kambag'allashadi, mintaqalarda nizolar ehtimoli kuchayishi ham mumkin.



(Davomi 2-sahifada.)

TAASSUROT



## TAFAKKUR DARVOZALARI

Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash “Ulug'bek” jamg'armasi jamoasi kuni kecha O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'ldi. Jamg'arma raisi, akademik Oqil Salimov boshchiligidagi guruh ekskursiyasiga Markaz direktori Firdavs Abdullaxolov hamrohlik qildi.

“Markaz binosini kuzatar ekanman, e'tiborimni to'rt muhtasham darvoza tortdi, – dedi akademik Oqil Salimov sayohat so'ngidagi davra suhbatida. – Sharq va G'arb me'morchiligida darvozalar muhim ahamiyat kasb etgan. Ularni baland va puvniqor qurishdan faqat mudofaa salohiyati ko'zda tutilmagan.

(Davomi 2-sahifada.)

NAJOT YO'LI

## YANGI ZAMON

### ILMI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti,  
O'zbekiston Qahramoni Shavkat AYUPOV  
bilan suhbat

– Fanlar akademiyasi har bir davlatning yetakchi ilmiy-tajriba markazi, ilmiy salohiyati ko'zgusidir. Garchi O'zbekistonda Fanlar akademiyasi 1943-yilda tashkil etilgan bo'lsa-da, uning ildizlari ming yilga borib taqalishiga tarix guvoh. Shunday emasmi, ustoz?



– To'g'ri mulohaza yuritdingiz. Birinchi Sharq Renessansi (IX–XII asr) avvalida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy kabi olimlar “Bayt al-hikma”da yetakchilik qilgan. E'tiborlisi, Bag'dod akademiyasiga dastlab tayyor kadrlar qabul qilingan. Bundan ko'rinadiki, ikki vatandoshimiz ham xalifa Ma'mun chorloviga javob bergan vaqtda Movarounnahr tuprog'ida taniqli olim sifatida dong taratib ulgurgan.

(Davomi 6-sahifada.)

## FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “BMT Turizm” bosh kotibi Shayxa Nosir Al Novaysni qabul qildi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi Farmoni imzolandi.

✓ Davlat tibbiyot muassasalari aprel oyidan besh kunlik ish haftasi rejimiga o'tdi.

✓ Kiprda davom etayotgan Davog'arlar turnirining 4-turida Javohir Sindorov AQSH vakili Fabiano Karuanani mag'lub etib, 3,5 o'chko jamg'argan holda turnir jadvalining yakka peshqadamiga aylandi.

TERAN ILDIZLAR

## BOYSUNDAN OQQO‘RG‘ONGACHA

Tongotarda  
aytilgan qo'shiq

To'rg'ay – tong qushi. Sahar shamoli bilan birga uyg'onadi. Saharmardonda chirqillab-chin-qirib kuylaydigan mittigina qush. Mumtoz adabiyotda “mullato'rg'ay”, “so'fito'rg'ay”, “bo'zto'rg'ay”, “to'rg'ay” iboralari ko'p uchraydi. Uni ko'rish har doim ham oson emas: osmon-u falaklarda charx urib qanot yozganicha, baland ovozda kuylaydi. Ovozida dashtning bepoyonligi, hurlik tantanasi va nedir shodlig-u, qayg'u aralash nola bor. Siz to'rg'ayni deyarli ko'rmasiz, ammo bir tekis chirqillab-chin-qirib kuylayotgan ovozi eshitiladi.

To'rg'ay adabiyotda erkinlik va yuksalish timsoli hisoblanadi.

Sharq she'riyatida bulbul ishqni qanday kuylasa, jahon adabiyotida to'rg'ay shunday ilhom va erkin ruhni tarannum etadi.

Intizorlik ramzi

O'zbekiston xalq baxshisi Shomurod baxshi Mahmanov kuylagan mashhur “Biyigul” aytimida shunday misralar bor:

Mullato'rg'ay necha-necha sayradi,

Otamdan-a biron darak bo'lmadi.

Enam quruq sochin yoyib jilaydi,

Jilama, enajon, jilama,  
Ota-yo, buyugim-o, norim-o,  
kelag'ang, sog'indik...

(Davomi 5-sahifada.)

TAHLIL



KUZATILAYOTGAN MANZARA

Ustoz jurnalist Mahmud Sa'diy ayrim olimlarni kimgadir tanishtirganda, oshkora istehzo bilan shunday derdi: “Bu kishim juda mashhur olim, darsliklari, monografiyalari, hatto o'quv qo'llanmalarini ham kamida uch kishi yoppasiga o'qiydi”. Gapning kesatq ekanini anglamagan odamning xayoliga, ajablanganidan shunday savollar keladi: Nega uch kishi? Butun boshli kitobniya? G'alati emasmi? Unda bu kitobning nashr etilganidan nima naf? Biz bu savollarga javob izlab, qolaversa, ustoz uch kishi deganda kimlarni nazarda tutishini so'raganmiz. “Birinchi muallifning o'zi, – deb javob qilgan rahmatli ustoz. – Ikkinchisi muharrir, uchinchisi musahhih”. “O'quvchi-chi?” degan savolga javob qilmagan, albatta.

Kamida yigirma besh yil avvalgi xotiralar bular. O'shandan beri ko'p narsalar o'zgardi.

(Davomi 4-sahifada.)

PREZIDENT MAKTABI

## CHO‘QQILAR SARI

“Osmon ustuni” deb ta'riflangan Tibet tog'lari yelkalari-dagi maktablardan biri dengiz sathidan qariyb besh yarim ming kilometr balandlikda joylashgan ekan. O'quvchilar sportchilar ham ko'tarilishga qiyinaladigan cho'qqidagi ta'lim maskaniga har kuni bilim olish uchun chiqib-tushishi hech kimni hayratga solmaydi. Pxumachanglik bilimsevar bolalarning ishtiyoqini na issiq, na sovuq susaytira oladi. Rost, insonda qiziqish va ishtiyoq uyg'otilsa, u har qanday cho'qqini zabt etishga qodir.

Bugun mamlakatlar o'z xalqini intellektual salohiyatini



oshirish uchun ta'lim tizimida turli islohotlarni amalga oshirmoqda. Yurtimizda ham o'quvchilar iqtidor va intilishlariga qarab ixtisos-

(Davomi 2-sahifada.)

MULOHAZA

BU POYGADA HAMMAMIZ  
OT CHOPTIRIB KO'RGANMIZ

Ustoz Abdulla Orif: “Millat, bir qarasang, boboga o'xshaydi, bir qarasang, yosh bolaga o'xshaydi. Shuning uchun uni svetofordan o'tayotganda, ehtiyot bo'lib o'tkazib qo'yish kerak”, degandi hazil aralash. Farosat bilan qarasangiz, bizning chekimizga tushgan XXI asrning qaltis, chalgituvchi “svetofor”lari ko'p ekan. Ular har qadamda, har xil shaklda uchraydi. Bu svetoforlarning ba'zida qizil va yashil chiroqlari baravar yonib qoladimi-yey, ba'zida sariqdan boshqa chiroq yonmay turaveradimi-yey, xullas, chalgituvchi holatlar ko'p.

(Davomi 5-sahifada.)

## QALTIS

### “SVETOFOR”LAR





# TAFAKKUR DARVOZALARI



Boshlanishi 1-sahifada.

Balki osmono'par kirish qismi kuch-qudrat, g'alaba, bag'rikenglik, ehtirom ma'nolarini ham o'zida mujassam qilgan. Bobiling Ishtar darvozasi, Napoleon buyrug'i bilan qurilgan Zafar darvozasi, boburi Akbarshohning Buland darvozasi jahonda mashhur. Samarqand, Buxoro, Qo'qon shaharlaridagi ko'hna darvozalarga bir nazar soling! Birgina Toshkentning 12 ta darvozasi bo'lganini eslaylik.

Bugun poytaxtimiz xalqimizga va olamga yangi qopqalarni – tafakkur

darvozalarni ochmoqda. Bu O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining to'rtta darvozasi. Markazning to'rtta darvozasidan biri Ulug'bek sharafiga nomlangani bejiz emas. Zero, ismi jismiga mos ulug' alloma Temuriylar Renessansining eng yorqin namoyandasi, davlatdorlik va ilmdorlikni barobar ushlagan, ma'rifatli jamiyat barpo etib, Movarounnahrni qirq yil tinch saqlagan fenomen.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ochilish marosimidagi nutqida ham bu borada alohida to'xtalib o'tdi: "Biz yurtimizda rivojlangan davlat, erkin

jamiyat poydevorini bunyod etish uchun eng avvalo, ilm va ilm, ta'lim va yana bir bor ta'lim, degan oliy maqsadni hayotimizga joriy etmoqdamiz. Zero, muqaddas dinimiz ham bizni doimo ilm-u ma'rifatga da'vat etadi. Shu bois, Islom sivilizatsiyasi markazining Ulug'bek darvozasi peshtoqiga Qur'oni Karimning "Iqra!" – ya'ni, "O'qi!" degan mubarak oyatini muhrlab qo'ydik. Bu ilohiy so'zlar zamirida islom dinining asl ma'no-mazmuni mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz".

Albatta, buyuk Amir Temur bobomiz Ikkinchi Renessans uchun poydevor qo'yib, zarur shart-sharoitlarni muhayyo qilmaganda edi, bashariyat Mirzo Ulug'bek "Zij'i, Alisher Navoiy "Xamsa"si, Kamoliddin Behzod suratlaridan balki hech qachon bahramand bo'la olmasdi. Ulug' g'oyalarni amalga oshirish uchun mustahkam davlatchilik lozim. Markaz bilan yaqindan tanishib, beixtiyor yana Prezidentimizning so'zlarini eslagimiz, ezgu niyat o'laroq ta'kidlagimiz keldi: "O'z davrida Mir Alisher Navoiy bobomiz Mirzo Ulug'bekning o'lmas merosi dunyo turguncha tursin, deb tilak bildirgan edi. Bizning ham orzu-maqsadimiz shunday: Islom sivilizatsiyasi markazi el-yurtimizga, jahon ahliga hamisha beminnat xizmat qilsin!"

Tashrif yakunida mazmunli ekskursiya va ma'lumotlar uchun majmua rahbariyati hamda xodimlariga Jamg'arma nomidan minnatdorlik bildirildi.

O'z muxbirimiz.



## CHO'QQILAR SARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu esa yuksalish yo'llarida e'tirofqa arziqli muvaffaqiyatlarga zamin yaratyapti. Xususan, 2019-yildan boshlab har bir hududning markaziy shaharlarida tashkil etilgan Prezident maktablari mamlakatimiz ta'lim tizimining o'ziga xos brendiga aylandi. Iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar dunyoning boshqa rivojlangan davlatlarida ham bo'lsa, ularning aynan "Prezident maktabi" nomi ostida faoliyat olib borishi O'zbekiston tajribasi bo'ldi.

Ana shunday nufuzli maskanlardan biri Navoiy shahrida bunyod etilgan bo'lib, ayni paytda bu yerda 168 nafar o'quvchi xalqaro standartlar asosida ta'lim olmoqda. 28 nafar mahalliy va 9 nafar xorijlik pedagoglarning sa'y-harakatlari bilan bitiruvchilar dunyoning TOP universitetlari talabasi sharafiga erishdilar. Ular Angliya, Avstraliya, Amerika va Osiyo davlatlarining e'tiborli oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirayotgani o'ta-onalari qatori ustozlarini ham quvontiradi.

– Maktabimiz yangicha baholash tizimiga o'tgan maktablar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, aynan Prezident maktabi boshqa umumta'lim maktablariga ham ushbu baholash tizimini targ'ib qilish uchun lokomotiv ilm maskani hisoblanadi, – deydi maktab direktori Jo'rabek Aslonov. – O'quvchilarimiz xalqaro fan olimpiadalariga chiqyapti. Matematika fanidan Bektosh Ro'ziqulov, biologiyadan Mashhura Qudratova erishgan qator yutuqlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Mana, yaqinda 11-sinf o'quvchisi Jasminabonu Erkinova tibbiyot va sog'liqni saqlash fanlari bo'yicha Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududida birinchi o'rinda turadigan nufuzli universitet – "American University of Beirut Mediterraneo Campus"ga "Bachelor of Science in Psychology" yo'nalishidagi xalqaro darajadagi grant asosida o'qishga kirdi. Bu – grant tufayli Jasminabonu to'rt yil o'qishi uchun unga 98 ming dollar mablag' ajratiladi, demakdir.

Bir kelsa, qo'sha keladi, degandek, yuqorida nomini tilga olganim – 11-sinf o'quvchisi Mashhura Qudratova 8-mart bayrami arafasida ta'lim yo'nalishi bo'yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'ldi. Albatta, o'quvchilarimizning bunday muvaffaqiyatlari bizni quvontiradi.

Direktor faxrlanganicha bor. 2025-yilning o'zida Bektosh Ro'ziqulov WMI (World Mathematics Invition) olimpiadasida kumush, AQSHning Nyu-York shtatidagi Xalqaro "Copernicus Mathematical Olympiad 2025"da oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Mashhura Qudratova onlayn tarzda o'tkazilgan "Neoscience" AQSH olimpiadasida biologiya yo'nalishi bo'yicha oltin, 20 ta davlat iqtidorli yoshlari orasida Rossiyaning Sochi shahrida bo'lib o'tgan Ochiq Xalqaro Biologiya Olimpiadasining bronza medallariga ega bo'ldi. Shuningdek, 2026-yilning boshida maktab ham akkreditatsiyadan o'tib, CIS – Xalqaro maktablar kengashi a'zoliciga kirdi.

– Maktab xalqaro darajada tan olindi, – deydi J. Aslonov. – Mana shuning o'zi ham bizga katta imkoniyatlar beradi. Endi o'quvchilarimiz jahonning eng nufuzli universitetlari grantlarini qo'lga kiritishlari yanada osonlashadi.

Albatta, Prezident maktablariga o'qishga kirishning o'ziga yarasha talablari bor. Chunki 24 o'rin uchun qariyb ikki ming o'quvchi hujjat topshiradi. Imtihonlar ham ikki bosqichda o'tkaziladi. Aniq fan, ya'ni matematika fanidan yuqori ball to'plagan bolalar Kembrij ta'lim tizimi talablariga ko'ra, fikr doirasining kengligi va ingliz tili bo'yicha imtihon qilinadi. Bundan tashqari, bola o'qishga qabul qilingach, maktabning o'zida istiqomat qilgan holda

ta'lim oladi. Bunda u uy ishlariga yoki boshqa mashg'ulotlarga chalg' olmay, fikr-u zikri ilm olishdan iborat bo'ladi.

Navoiy shahridagi Prezident maktabida mavjud o'quv kuni akademik to'garaklar faoliyati bilan davom etadi. Har bir o'quvchida kreativlikni shakllantirish uchun uning qiziqishlari o'rganilib, o'ziga mos to'garaklarga jalb etiladi. Masalan, bugungi kunning eng ehtiyoj katta sohalari – robototexnika va sun'iy intellekt, shuningdek, suzush, san'at yoki nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan to'garaklar ishlab turibdi. Asosiy e'tibor esa eng zamonaviy ta'lim jarayonida har bir o'quvchi ongida vatanparvarlik g'oyasini saqlab qolishga qaratilgan.

Xalqaro toifadagi xorijiy pedagog kadrlarni ishga olish tartibi ham izchil yo'lga qo'yilgan. Avvalo, e'tiborli xalqaro saytlarga mavjud bo'sh o'rinlar to'g'risida ma'lumotlar joylashtiriladi. So'ngra shu ish o'rni uchun maktab tizimining talab va ish tartibi yuklanadi. Yuborilgan hujjatlar o'rganilib, test imtihoni va suhbat o'tkaziladi. Tanlab olingan xorijiy ustoz Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Navoiylik Prezident maktabi o'quvchilari hozirda Yangi Zelandiya, Filippin, Janubiy Afrika, Keniya va Ruminiyadan kelgan tajribali o'qituvchilardan ta'lim olishmoqda.

Ha, Prezident maktablari ta'lim tizimiga kirish nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchilarning ham orzusiga aylandi bugun. Bir so'z bilan aytganda, kelajak yetakchilarini tarbiyalovchi eng nufuzli ta'lim muassasalari sanaladi bu maktablar. Albatta, 20-30 nafar xohlovchilar orasidan tanlanganlardan bo'lish oson emas-da.

Maktab pedagoglar jamoasi o'quvchilari zehniyatida nainki fanlar, balki jamoa bilan ishlash, tadqiqot o'tkazish va mustaqil fikrlash kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirmoqda. Bu yerda ta'lim olayotganlar startap, IT va ilmiy tadqiqot loyihalari bilan kundan kunga faollashib boryapti. Shuningdek, tashabbus va g'oyalari, faol harakatlari va izlanishlari bilan mamlakatimiz ta'lim tizimida yuqori o'rinlarni egallamoqda. Maktabning iqtidorli o'quvchilaridan biri Mashhura Qudratova bilan suhbatlashib, bunga yana bir bor amin bo'ldik.

– O'ta-onam oddiy odamlar. Otam tez tibbiy xizmatda haydovchi, onam uy bekasi, – deydi Mashhura. – Oilada to'rt farzandim. Akam magistraturani biznes boshqaruvi yo'nalishida Londondagi South Bank University (LSBU)da tugalladi. Ikki opam ham oliy o'quv yurtlarida tahsil oladi. Men akamga havaslanib, xalqaro olimpiadalar sovrindori bo'lishga ko'proq qiziqardim. Ikkinchi sinfdaligimda otam televizorda Zulfiya mukofoti bilan taqdirlanganlar haqidagi ko'rsatuvni ko'rib o'tirib, onamga "Mening qizim ham bir kun kelib shu mukofotni oladi", deganlarini eshitib qoldim. Ichimda bir istak uyg'ongan, lekin katta orzum xalqaro olimpiadalarda o'rin egallash edi. Prezident maktabida yo'nalishim bo'yicha ustozim Zebo opa Ro'ziqulova men bilan individual shug'ullandi. Har ikki orzumga erishdim. Zulfiya mukofoti taqdirlash marosimida Prezidentimizga oldimga qo'ygan maqsadim – Avitsenna Xalqaro Biologiya, Ochiq Xalqaro Biologiya hamda nufuzli 37-Xalqaro Biologiya Olimpiadalarida oltin medalni qo'lga kiritish ekanini aytdim. Davlatimiz rahbarining: "Ko'ryapsizlarmi, Mashhura qizim menga uchta oltin medalni va'da qilyapti", deganlari menga yangi kuch-quvvat berdi. Mana shu va'damni bajarish uchun astoydil harakatdaman.

Biz senga va baxti kulgan tengdoshlaringga ishonamiz, Mashhura!

Muhayyo RUSTAMOVA

## “SENDAN VATAN DEGAN BOG' QOL SIN, EY DO'ST”

Boshlanishi 1-sahifada.

Olimlar Yer sayyorasida saharlashishning asosiy sabablari sifatida aholi sonining ko'payib borayotgani, o'rmon va daraxtzorlar kesilayotgani, unumdor yerlar yaylov sifatida haddan ziyod ko'p foydalanilayotgani, tuproq eroziyasi va iqlim o'zgarishini tilga oladi. Buning eng samarali yechimlaridan biri – ko'chat ekish. Qolaversa, an'anaviy energiyadan foydalanishni kamaytirish, aksincha, qayta tiklanadigan, muqobil energiya manbalarini keng joriy etish. O'zbekistonda har ikkisi ham samarali tarzda amalga oshirilayapti. Chunki global iqlim isishi inson salomatligi, ekosistema barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun, davlatlar va tashkilotlar iqlim o'zgarishini kamaytirish va uning salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish maqsadida yangi loyihalarni amalga oshirmoqda. O'zbekistonda ham Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi shular jumlasidandir.

"Yashil makon" loyihasi, o'z navbatida, mamlakatda yashillik darajasini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrash va odamlarning salomatligini yaxshilashga qaratilgan. Loyiha doirasida har yili 200 million tup ko'chat ekilayotgan bo'lsa, 2 ming gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog' va parklar, 47 ta massivda "Yangi O'zbekiston" bog'lari barpo etildi. Respublikamizning tog', cho'l va adir hududlarida 256 ming gektar o'rmon tashkil qilindi. Orolning qirigan tubida 2 million gektar maydonda yashil qoplamali himoya o'rmonzorlari yaratildi. Shamol va qum-chang bo'ronlarining zararli ta'sirini oldini olish maqsadida 33 ta tumanda 60 kilometrli "yashil belbog'" hosil qilindi. Bu tadbirlar nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda.

Mazkur tadbirlarning xayrli tomoni ko'p, albatta. Ko'chat ekish va yashil hududlarni kengaytirish orqali atmosferadagi uglerod dioksidini kamaytirish mumkin. Daraxtlar uglerodni so'rgan holda havo sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini yaxshi bilamiz. Havoni tozalash, uglerod dioksidi so'rilishini ta'minlash va biologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Yashil hududlar aholi salomatligini yaxshilaydi. Daraxtlar va yashil maydonlar stressni kamaytiradi, psixik salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi va jamoat joylarining estetik ko'rinishini yaxshilaydi.

Prezidentimizning tadbirdagi nutqida yodga olingan har bir hududda "Yashil" texnikumlarining tashkil etilishi dual ta'lim asosida har yili ekologiya sohasida 10 ming nafardan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu texnikumlarda olingan bilimlar talabalarga ekologiya va agronomiya sohasidagi zamonaviy metodlarni o'rganish imkonini beradi.

Botanika va dendrologiya bog'lari ushbu texnikum o'quvchilari uchun amaliyot bazasi bo'lib, ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun ham muhim maydon hisoblanadi.

Loyiha doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning takliflari aholini yanada faol ishtirok etishga undamoqda. Yashil

bog'lar yaratish, jamoat parklari tashkil etish va ekologik ta'lim berish borasidagi yangi tashabbuslar mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga, aholining salomatligini yaxshilashga va ekologik madaniyatni oshirishga xizmat qiladi. Endi "Mening bog'im" dasturi doirasida har bir loyiha uchun ajratilgan byudjet mablag'i 250 million so'mdan 400 million so'mga oshirildi. Bu, o'z navbatida, aholining yashil bog'lar yaratish bo'yicha faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Aholi o'zlari tanlagan yerlarda, yashash hududlariga yaqin va suv ta'minoti mavjud joylarda 1 gektargacha yer ajratilishi, jamoatchilikning loyihalarda ishtirokini ta'minlaydi.

Qolaversa, bu yilgi mavsumdan boshlab, Qonunchilik palatasining har bir deputatiga o'z okrugida yashil hudud va bog' yaratishi uchun 412 million so'mdan mablag' beriladi. Bu chora-tadbirlar deputatlarning o'z jamoalari bilan yaqindan ishlashini va ekologik inqilobni amalga oshirishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.



Prezidentimiz xalqimizdagi "Yaxshidan bog' qoladi", "Bir ko'chat – ming baraka", "Farzand ko'rsang, to'y qilsang, daraxt ek" kabi hikmatli so'zlarning ahamiyatini ta'kidladi. Bu qadriyatlar ekosistemani muhofaza qilish, yashillikni ko'paytirish va jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mahalla raislari, otaxon va onaxonlar, xotin-qizlar vakillari hamda barcha faollar joylarda milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarni kengroq targ'ib qilishga chaqirildi.

Ming afsuski, dunyoning hamma davlati ham xalqini, uning salomatligi yo'lida ekologiyani asrashga O'zbekiston Prezidentichalik e'tibor qaratayotgani yo'q. Dunyo miqyosida oladigan bo'lsak, oxirgi 20 yil ichida 4,5 milliardga yaqin odam yirik tabiiy ofatlar ko'rinishidagi iqlim o'zgarishi ta'siridan aziyat chekdi, 1,2 million kishi halok bo'ldi, iqtisodiy zarar esa qariyb 3 trillion dollarni tashkil etdi. Mutaxassislarning fikricha, Markaziy Osiyo mamlakatlari ham geografik joylashuv xususiyatlaridan kelib chiqib, iqlim keltirib chiqaradigan oqibatlarga ko'proq moyil.

Prezidentning daraxt ekish va yashil makonlarni tashkil etish bo'yicha tashabbuslari xalqimizdagi ekologiyani muhofaza qilish, tabiat bilan uyg'un yashash va milliy qadriyatlarini davom ettirishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotga o'tish – bu kelajak avlod uchun toza, sog'lom va barqaror muhit yaratishning muhim omilidir.

Iqbol MIRZO,  
O'zbekiston xalq shoiri



“Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,  
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.”

Erkin VOHIDOV



## YANGI KITOBLAR

## “IZHORLAR KVINTESSENSIYASI”

Adabiyot olamiga mehringizni yana bir karra oshiradigan navbatdagi tuhfa – sevimli adib Xurshid Do'stmuhammadning O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashrga tayyorlangan “Tanlangan asarlari”dir.



Kitobga yozuvchining ko'p yillik ijodiy bisotidan saralangan, el tiliga tushib, e'tirof qozongan bir qator asarlari – “Bozor”, “Donishmand Sizif”, “Joys” romanlari, “Chayongul yoxud quyiqishloqcha qotillik”, “Uch qo'shiq”, “Kuza”, “Katta ko'cha” qissalari, shuningdek, “Jajman”, “Jim o'tirgan odam”, “Qichqiriq”, “Muhtaram jalloj janoblari” singari o'ndan ziyod hikoyalari kiritilgan.

Kitob avvalida berilgan “O'zim haqimda” nomli so'zbo'shida muallifning shunday so'zlari bor: “Bu yorug' dunyoning tengsiz mo'jizalaridan biri – izhor! Tong saharda quyoshning yilt etib chiqishidan to tungi oy va uning tegrasida yulduzlarning jimirlashlarigacha, bahor ayyomi dov-daraxtlarning yaproq yozishi, qorlar erib jilg'alarda suvning sharqirab oqishigacha... dunyoga kelgan chaqaloqning “inga-a-a'si,

ulg'ayish, bola-chaqa, qarindosh-urug', oshna-og'ayni, kasb-kor, quvonch ila qayg'u, iztirob, armon, afsus-u jamiki kechinmalar daryosi... xayolni hayotning adoqsiz sinoatlariga chorlovchi azon sadosigacha – izhor, izhor, izhor! Izhorlarning gulto'ji esa – Ijod! Ijod – izhorlar qaymog'i, kvintes-sensiyasi!”

O'ylaymizki, taniqli adibimizning eng muhim izhorlari mag'zini tashkil etadigan bu asarlar o'quvchilarga manzur bo'ladi.

## SAMARA

Favqulodda vaziyatlar tabiiy va texnologiyaga ega holatlar bo'lib, ularga zilzila, sel-u suv toshqinlari, yong'inlar, ko'ch-kilar, kuchli shamol-u bo'ronlar, shuningdek, ishlab chiqarishdagi avariya va boshqa turdagi ofatlar kiradi. Ular kutilmaganda yuz bergani uchun xavfni bartaraf etish tezkor hamda puxta tayyorgarlikni talab etadi. Ushbu materialni tayyorlash uchun hududga yuborilgan jurnalist ham belgilangan manzilga oldindan oghlantirishsiz yetib borib, vaziyatni bevosita va xolis kuzatish imkoniga ega bo'ldi. Xodimlar esa har qanday favqulodda vaziyatga tayyor ekanliklarini ko'rsatib, barcha savollarga belgilangan tartibda aniq va tushunarli javob berdi. Demak, tayyor bo'lsangiz, hammasini bir boshidan boshlaymiz...



# TEMURBEK NAVKARLARI

## Xirovulning yangi avlodi

Bundan yetti yil avval Prezidentimizning “O'smirlarni harbiy vatanparvarlik Ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiya tarkibida “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi tashkil etilgan edi. Shular qatorida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufidagi Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi ham yoshlarni Vatanga sadoqat va mardlik ruhida tarbiyalovchi maxsus ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Bu yerda o'quvchilar harbiy soha va qutqaruv ishlari bo'yicha bilimlarni tizimli egallash bilan birga, matematika, fizika, informatika va chet tillari kabi fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganadi. Shuningdek, ular saf tayyorgarligi, jismoniy chiniqish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kabi amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradi. Mazkur tayyorgarlik jarayoni o'quvchilarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlab, ularning kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Takomillashtirilgan o'quv dasturi, eng yaxshi pedagoglar va a'lo darajadagi moddiy-texnik bazaga bo'lgan, O'zbekiston qutqaruv kuchlarining yangi avlodi shakllanadigan mazkur maskanda ilimga chanqoq yoshlar soha sirlarini puxta o'zlashtirmoqda.

Ushbu harbiy-akademik litsey faoliyati bilan bizni direktor Zafarjon To'rayev tanishtirib bordi: “Qabulimiz 9-sinfni tamomlagan o'g'il bolalar orasidan tanlov asosida amalga oshiriladi. Nomzodlar test sinovi, jismoniy tayyorgarlik hamda tibbiy ko'rik natijalari

asosida saralanadi. Har yili o'rtacha yuz nafar o'quvchi olamiz”.

O'quvchilar to'liq davlat ta'minotida bo'lib, bepul issiq ovqat, maxsus harbiy forma hamda zarur yashash sharoitlari, yotoqxonalar bilan ta'minlanadi.

Binoning kirish qismida Sohirqon Amir Temurning haybatli tasviri kishining e'tiborini darhol o'ziga tortadi. Har qadamda “Temur tuzuklari”dan olingan ibratli hikmatlar yozilgan peshlavahlar o'quvchilarni tafakkurga chorlaydi. Devorlarda esa Temuriylar shajarasi aks ettirilgan kompozitsiya, “Buyuk sarkarda Amir Temurning yurishlari xaritasi” hamda “Temuriylar davri qahramonlari” nomli devoriy suratlar uyg'un joylashtirilgan bo'lib, ular maktabga shonli tarix va davlatchilik an'analarini ruhini bag'ishlab turibdi.

Harbiy-vatanparvarlikni ulug'lovchi shiorlar bu muhitning ma'naviy-ma'rifiy quvvatini yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, maktabning muhri va bayrog'ida ham bitilgan “Kuch adolatdadir” shiori bino markazida yaqqol ko'rinib turadi. Bu esa muassasaning asosiy o'yasi hamda tarbiyaviy ahamiyatini ifodalaydi. Axborot-resurs markazi esa o'zining zamonaviy jihozlanishi, boy kitob fondi va yaratilgan qulay o'quv muhiti bilan e'tiborni jalb qiladi. Bu yerda bilim olish uchun barcha shart-sharoitlar yuksak standartlar asosida tashkil etilgan bo'lib, u har qanday o'quvchida ilimga intilish va izlanish ruhini kuchaytiradi.

Shu yerda kitob mutolaasi bilan band bo'lgan bir necha o'quvchi bilan suhbatlashdik. Ulardan Dilshod Normurodov, Mirhayot Ziyodullayev, Shahzodbek Muqimboyev, Esonbek Quvondiqov va Nodirbek Eshtemirovlar o'qish jarayoni, shart-sharoitlar hamda tanlagan yo'nalishlari haqida o'z fikrlarini bildirib o'tdi. Ikki yil davomida o'quvchilarning kun tartibi qat'iy intizom va aniq reja asosida, haqiqiy harbiy ta'lim muassasalariga xos tizimda tashkil etiladi. Bu jarayonda jismoniy tayyorgarlik bilan birga ularning

intellektual salohiyati ham uzluksiz rivojlantirib boriladi. Yuqorida nomlari tilga olingan yoshlar ham mahalliy va xalqaro darajadagi yutuqlarga erishgan. Jumladan, ular orasida IELTS va TOEFL kabi xalqaro til sertifikatlarini qo'lga kiritgan, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishida Cambridge International Examinations, STEM olimpiadalari hamda IMC kabi nufuzli xalqaro tanlovlarda faol ishtirok etib, sovrinli o'rnlarni egallagan o'quvchilarning borligi ham kishini quvontiradi.

Mazkur maktabda ingliz tili fanidan dars beruvchi o'qituvchi Nozimbek Odilovga favqulodda vaziyatlarda faoliyat yuritadigan yoshlar uchun chet tilining ahamiyati haqidagi savol bilan murojaat qilganimizda u:

– Zamon jadal rivojlanmoqda, har bir yangi texnologiya ingliz, xitoy, koreys kabi chet tillarida yaratilayotgani sababli, ularni to'g'ri tushunish va amaliyotda samarali qo'llash uchun xorijiy tilni ilmiy darajada bilish talab etiladi. Shuningdek, sohaga oid muhim adabiyotlar, xalqaro tajriba va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish uchun har bir o'quvchi jahon tillarini mukammal darajada egallashi shart, – deb javob berdi.

Mahalliy miqyosda o'quvchilar Prezident maktabi va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'rtasidagi fan olimpiadalari, “Bilimlar bellashuvi”, “Iqtidorli yoshlar” tanlovlari, Respublika fan olimpiadalari, “Zakovat” intellektual musobaqalari hamda “Yosh qutqaruvchi” kabi amaliy yo'nalishdagi musobaqalarda ham yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda.

Temur yosolida old safda turuvchi peshqadam qo'shin “xirovul” deb atalgan. Ushbu ta'lim maskani mamlakatning kelajagini belgilovchi ilg'or yoshlarni yetuk shaxslarga aylantirmoqda.

Shahriyor SHAHKAT

## “SHE'RIYATIMIZ KARVONIDA...”

Shoir va tarjimon, publitsist Minhojiddin Mirzo nomi adabiyot ixlosmandlariga yaxshi tanish. Adibning O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan “Tanlangan asarlar” to'plamiga turli yillarda yozilgan sara she'r va dostonlari, tarjimalari, safarnomalari, ilmiy va badiiy publitsistik maqolalari jamlangan. Shuningdek, avval e'lon qilinmagan yangi asarlari ham ilk marta kitobxonlar e'tiboriga havola etilmoqda.



Kitobga O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan yozilgan “She'riyatimizning yana bir Mirzosi” nomli maqola so'zboshi o'rni berilgan: “Minhojiddin Mirzo she'rilarida ona yurt, o'chmas imyon kabi muqaddas tushunchalar g'oyat yuksak darajada sharaflandırilgan. Qadim Andijonda, Bobur va Cho'lpondek zotlarni yetishtirgan zaminda tug'ilib o'sgan shoirimiz xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda yozmasin, uning nuqtayi nazari ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Minhojiddin Mirzoning mehnat faoliyati ham ma'naviy jabhalarimiz

bilan bog'lanib ketgan. Siz ushbu kitobda turli mavzularda yozilgan pishiq-puxta she'riy satrlarni o'qiyisiz. She'riyatimiz karvonida Minhojiddin Mirzodan shoirning o'z o'rni va ovozi borligiga amin bo'lasiz”. Atoqli shoirimizning ushbu tavsiviyalari o'quvchilarni mazkur kitobni topib o'qishga da'vat etadi, deb ishonamiz.

Nigina ISKANDAROVA

## SIYRAT

Yaxshi odam bilan qachon tanishganing esingdan chiqib ketadi, go'yo u bilan azal-azaldan do'st maqomidan. Qizig'i, bu haqda o'ylashning zarurati ham tug'ilmaydi. Shunday insonlar omadi borlargaquna duch keladi... Abdurasul Jumaqul ko'ngli toza, do'stlariga mehribon, zarur bo'lsa, yordamga birinchilardan bo'lib yetib kelguvchi yaxshi insonlardan biri. U O'zbekiston Yozuvchilar hamda Jurnalistlar uyushmalari a'zosi.

Inson bolasi dunyoga o'qish, bilim olish uchun, ya'ni olamni o'rganishday sharaffi vazifa bilan keladi, payg'ambarimiz (s.a.v.)-ning Hiro g'orida eshitgan birinchi so'zlari ham: “Iqro!” – “O'qil!” bo'lgan ekan. Bu hikmat hamisha dil-dilimizda saqlanadi.

Mamlakatimizda taniqli jurnalist, mohir publitsist, o'ziga xos shoir, nozik kuzatuvlar olib borish iste'dodiga ega bo'lgan yozuvchi Abdurasul Jumaqul asli surxondaryolik, Termiz tumanida tug'ilgan, yuqoridagi ulug' hikmatni unutmagan holda maktabdayoq o'zining tirishqoq, serg'ayrat ekanini ko'rsatdi. Tinmadi, baholari a'lo edi. O'qishning ketidan quvdi, izlandi, o'rgandi. 1990-yili Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)-ning jurnalistika fakultetini bitirdi. Bilim olish ishtiyoqi kuchlligidan, shunga ehtiyoj sezganidan u 2007-yilda Termiz Davlat universiteti iqtisodiy-menejmenti fakultetiga o'qishga kirib, bu o'quv dargohini ham muvaffaqiyatli tamomladi.



Xizmat pillapoyalari ham rang-barang. Abdurasul Jumaqul mehnat faoliyatini “Surxon tongi” gazetasida muxbirlardan boshladi, bu unga juda qo'l keldi. Viloyat tumanlarini kezb chiqdi, jahon madaniyatining o'choqlaridan biri bo'lgan jonajon Surxon vohasi tarixini o'rgandi. Axir, Surxon zaminining o'tmishi necha-necha ming yilliklarga borib taqaladi. Eh-he, bu tarixning cheki yo'q...

# IZLANISH VA IJOD ZAVQI

Serg'ayrat odam doim harakatda bo'ladi. Abdurasul ham shunday.

Shuni aytish kerakki, u qayerda ishlasa ham o'zining mehnatsevarligini, o'z kasbiga sodiqligini namoyon qildi. Albatta, bunday fidoiy insonlarga taqdirning o'z siylovlari bo'ladi. Abdurasul Jumaqul ham Prezidentimiz Farmoniga ko'ra “Shuhrat” medali va “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandi.

2019-yildan nufuzli “Hurriyat” gazetasi bosh muharriri sifatida faoliyat yuritayotgan, aytish kerakki, Abdurasul ijodni ham aslo o'ksitmadi. “Osmon beshigi”, “Ishq bog'i” she'rilar to'plami, “Yurakka sig'magan gaplar”, “Yillar va yo'llar” va boshqa yana bir necha kitoblar e'lon qildi. Ular orasida publitsistik maqolalar, suhbat va adabiy o'yalar, voqeiy hikoyalari va esselardan iborat “Kunduzgi chiroq” nomli salmoqli kitobi alohida ajralib turadi.

Abdurasul Jumaqul publitsistikaga kuch berdi, chunki u hozirjavob janr, qolaversa, shakl tanlab o'lmaydi, hozir qaynab turgan, yozuvchiga orom bermayotgan muammolar tezlikda qog'o'zga to'kilaman, deb turadi.

Adibimiz o'z maqolalarida yangi davr qadamlarini qalamga oldi, yorug' tonglar orzusi bilan yashayotgan zamonadoshlarimizni madh etdi, yurtimizning ertasi haqida yorqin xayollarga berdi.

Uning safarnomalari ham g'oyat qiziqish bilan o'qiladi. “Tutash tomirlar diyoriga safar” essesi bunga yorqin misoldir. Muallif asarni yozishda

ko'p kitoblarni varaqlagan, hind olimlari bilan bo'lgan qizg'in suhbatlardan tergan yangiliklarni ta'riflab xulosalar chiqaradi. O'quvchi faqatgina Bobur ekspeditsiyasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmaydi, balki shu bahona, ota-bobolari shahrisabzlik o'zbeklar bo'lgan ulug' ajdodlarimiz Amir Xusrav Dehlaviy, Mirzo Abdullqodir Bedil, otasi samarqandlik, onasi buxorolik bo'lgan otashnafas shoir Mirzo Abdullaxon G'olib (uning “Shaydo” nomli o'zbek tilidagi ilk to'plami 1965-yilda Toshkentda bosilib chiqqan M.A.)lar hayoti va ijodi haqida teran ma'lumotlar oladi. Muallif Dehlining qoq markazida joylashgan Humoyun Mirzoning go'zal maqbarasi va Agrada boburiy Shoh Jahon barpo etgan “marmariy doston” – Tojmalah mo'jizalari haqida mehr bilan yozadi.

Umuman, Abdurasul Jumaqul tarixiy siymolar va asarlar haqida qalam tebratishni yaxshi ko'radi. Uning “Bibixonim” maqolasi ham juda yaxshi yozilgan. “Graf Monte-Kristo tarixiy shaxsmi?” nomli maqolasi esa mashhur tarixiy asarni o'quvchiga yanada yaqinlashtirishda xolisona xizmat qiladi.

Adibning voqeiy hikoyalari ham e'tiborga sazovor. U atrof hayotga boqib, ajralib turadigan qiyofalarni topa oladi. Menga ma'qul bo'lgan asarlardan biri “Istara” essesidir. Siz “Istara” deganda, albatta chehra, yuz ko'rinishi yoqimli, xushro'y, jozibali, yulduzi issiq ma'nolarini o'ylab ketasiz, uning yulduz ma'nosi ham bor. Yo'q, bu adibimiz tug'ilgan ona qishloq Istara haqida, unda o'tgan mo'tabar insonlar, zahmatkash kishilar, turfa

voqealar to'g'risida farzandlik mehri bilan samimiy yozilgan izhori dildir.

Yuqorida Abdurasul Jumaqulni shoir dedim. Ha, u shoir ham. Unda shoirona nigoh borligini quyidagi she'rilarida ko'rish mumkin. Shoirning “Qisqa qo'shiqlar” degan yapon xokkulari usulida yozilgan she'rilaridan biri:

Senga qoyil qoldim,  
Ey, Maysa!  
Shunday qattiq yerni  
teshib chiqibsan,  
qo'rqmay yashashdan!

Yoki: **Men seni kechirdim...  
Endi bir umr  
Kechirmay yashayman  
O'zimni o'zim...**

Yoki: **Agar ketsang, devordagi  
Suratingni ham  
Olib ket, erkam...  
Qalbmimga menga yetadi...**

Shoirning hamma she'rilarida fikr bor, tasvir bor, eng muhimi – dard bor! Bu chinakam shoir bo'ladi.

Abdurasul Jumaqul oltmish yoshga kiribdi. Oltmish yosh... Gapning ochig'i, oltmish yosh bugun hali bir necha qovun pishig'i bor o'rta yoshga o'xshab qoldi. Oltmish yosh – qaynab ijod qilish pallas, ilhom daryosining to'lib-to'lib oqadigan yillari...

Men Abdurasul Jumaqulga ana shunday jo'shqin ilhomlar nasib etishini tilayman.

Muhammad ALI,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi



Boshlanishi 1-sahifada.

# BIR KISHI O'QIYOTGAN KITOBLAR

## NOSHRLAR NIMA DEYDI? MUALLIFLAR-CHI?

Mavzu yuzasidan bir qancha nashriyotlarda o'tkazilgan so'rovdan quyidagilar oydinlashdi: oliy ta'lim o'qituvchilari tomonidan nashr etilayotgan darslik, monografiya, o'quv va uslubiy qo'llanmalar bo'yicha ahvol chindan tashvishi. Bu bosma mahsulotlarning aksari boshqa mualliflarning kitoblaridan ko'chirilgan. Muharrir nigohidan o'tmagan. Imlo xatolari tuzatilgan. Chiqish ma'lumotlarida ko'rsatilgan adad ham yolg'on, ikki yuzta, uch yuzta, besh yuzta, mingta adad yozilgan bo'lishiga qaramay, uch donadan ellik donagacha chop etilgan. Bunday voqelik shunday: katta adadga nashr etish uchun talab

qo'llanmalar, monografiyalar, risolalar, darsliklar yozish hamda nashr etish o'qituvchining shaxsiy ish rejasi talabi. Demak, uni bajarish shart.

## VAZIFA QANDAY BAJARILMOQDA?

"Bu ko'plab o'qituvchilarni o'ylantirayotgan masala, – deydi siyosatshunos olim Farhod Karimov. – Chindan, talabalar ba'zi darsliklarni varaqlab ham ko'rmaydi. Chunki ko'pgina darsliklarda faktologik tahlillar yetarli emas. Yana bir e'tiborli jihat, SHIR doirasida ish olib borayotgan o'qituvchi mavzuni ham, janri ham o'zi tanlaydi. Bu esa ehtiyoj bo'lmagan ilmiy adabiyotlar sonining ortib ketishiga olib keladi. Ayrim hollarda darsliklar yozilib, nashr etilgunga qadar o'quv yili tugaydi. O'qituvchi ertaroq

natijasi emas, shaxsiy ish rejasini bajarish vositasi sifatida paydo bo'ladi. Bu esa ilm-fanning tabiiy mantig'ini o'zgartirib yuboradi: tadqiqot kitob yozilishiga olib kelmaydi, aksincha, kitob talabni bajarish uchun yoziladi. Savol tug'ildi: rivojlangan mamlakatlarda kitob nashri qat'iy ekspertiza, universitet nashriyotlari va davlat grantlari orqali ta'minlanar ekan, nega bizda bu jarayon ko'p holda muallifning shaxsiy imkoniyati va nashriyot ixtiyoriga tashlab qo'yilgan? Ilm-fan rivoji uchun sifat muhim emasmi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq

sonidan ko'ra ularning sifatiga, iqtiboslar soniga va tadqiqotning ilmiy ahamiyatiga ko'proq e'tibor qarata boshlagan.

Ilmiy nashrlarni kuzatib boruvchi Retraction Watch ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda turli sabablar – plagiat, ma'lumotlarni sotxalastirish yoki metodologik xatolar tufayli minglab ilmiy maqolalar va tadqiqotlar ilmiy muomaladan qaytarib olingan. Bu holat ilmiy nashrlar soni emas, balki ularning ishonchiligi va ilmiy qiymati muhim ekanini yana bir bor ko'rsatadi. O'zbekistonda ham mazkur holatga yetarlicha e'tibor berilmasa, buning yana bir salbiy oqibati yuz ko'rsatishi, oliy ta'lim muassasalarida nashr etilayotgan darslik va qo'llanmalar ilmiy adabiyot sifatida mutlaqo ishonchsiz manbalarga aylanib qolishi mumkin.

Jahondagi nufuzli universitetlar faqat binolari yoki talabalar soni bilan emas, ilmiy faoliyatining sifati bilan ham baholanadi. Masalan, xalqaro reytinglarni tuzuvchi Times Higher Education va QS World University Rankings kabi tashkilotlar universitetlarni baholashda asosan tadqiqot sifati, ilmiy nashrlar va ularga berilgan iqtiboslar sonini hisobga oladi. Demak, faqat hisobot uchun chop etilgan, ilmiy muhitda o'qilmaydigan yoki iqtibos olinmaydigan kitob universitetning xalqaro nufuzini oshirmaydi.

Bu muammoga faqat alohida muallif yoki nashriyotning kamchiligi emas, tizimli masala sifatida qarash lozim. Ilmiy kitob nashrini reja bajarish vositasiga aylantirib qo'yish ilm-fan rivojiga xizmat qilmaydi. Aksincha, ilmiy muhitda sifat va mas'uliyat tamoyillarini zaiflashtiradi.

## OQIBATINI KIM O'YLAYDI?

Barchamiz o'ylashimiz kerak. Negaki, shundoq ham aksar oliy ta'lim muassasalarining bir-birlari bilan ilmiy aloqalari haminqadar. Qolaversa, masalaning boshqa tomoni ham bor: mamlakatdagi oliy ta'lim dargohlari soni ikki yuzdan oshdi. Bir ta'lim dargohida uchta yoki ellikta nashr etilgan darslik, monografiya, qo'llanma yo o'quv qo'llanma barcha ta'lim dargohlarining kutubxonalariga yetib bormaydi. Natijada, bir mavzuda ilmiy tadqiqot olib borayotganlar bir-biridan bexabar holda ish tutadi.

Ilm-fan tarixi shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar o'rtasida axborot almashinuvi yetarli bo'lmagan joyda ilmiy taraqqiyot ham sekinlashadi. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlarda ilmiy natijalarni bir joyda jamlash va barcha tadqiqotchilarga ochiq qilish uchun maxsus milliy va xalqaro platformalar yaratilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida OpenAIRE platformasi orqali universitetlar va ilmiy markazlarda yaratilgan tadqiqotlar, monografiyalar va maqolalar yagona elektron muhitga joylashtiriladi. Openaire.eu internet manbasi ma'lumotiga ko'ra, bu tizim Yevropa mamlakatlari bo'yab minglab universitetlar va tadqiqot markazlarini birlashtirib, tadqiqot natijalarining erkin almashinuvini ta'minlaydi.

Yaponiyada ilmiy nashrlarni umum-milliy elektron repozitoriy orqali tarqatish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Repozitoriy – bu ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, darsliklar va boshqa akademik materiallarni yig'ish, saqlash, tizimlashtirish va keng jamoatchilikka taqdim etishga mo'ljallangan raqamli platforma hisoblanadi. Masalan, JAIRO Cloud platformasi orqali universitetlar o'z ilmiy nashrlarini yagona tizimga joylashtirib, ularni mamlakat bo'yab tadqiqotchilar uchun ochiq qiladi. Bu esa bir universitetda yaratilgan tadqiqot natijalaridan boshqa universitet olimlari ham erkin foydalanishiga imkon beradi.

Dash.harvard.edu taqdim etgan ma'lumotlarga qaraladigan bo'lsa, AQSHda ham shunga o'xshash tizimlar faol ishlaydi.

## MUAMMOGA YECHIM BOR

Mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida shunday holat kuzatilmoqda, degan fikr to'g'ri emas. Ayrim universitetlarda darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etish bo'yicha



Abdulhamid MUXTOROV,  
O'zbekiston Jurnalistlar  
uyushmasi a'zosi

aniq tartib joriy qilingan. Ularda kitoblar universitet hisobidan nashr etiladi, hatto mualliflar rag'batlantiriladi. Ammo bunday ta'lim muassasalari barmoq bilan sanarli.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ilmiy va ta'lim resurslarini raqamlashtirish hamda ularni markazlashtirilgan holda saqlash ushbu muammoga yechimlardan biri bo'lishi mumkin.


O'zbekistonda ilmiy va ta'lim adabiyotlarni elektron jamlashga xizmat qiladigan ayrim platformalar mavjud, albatta. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi aynan shu xizmatni bajarayotgan muassasalardan biri. Uning asosiy vazifasi milliy nashr mahsulotlarini yig'ish, saqlash va foydalanuvchilarga taqdim etishdan iborat. Biroq uni to'liq akademik repozitoriy deysizga shoshilmagan ma'qul. Chunki kutubxonada asosan nashr qilingan kitob va jurnallarni arxivlashga yo'naltirilgan. Ilmiy repozitoriy esa ilmiy materiallarni raqamli muhitda jamlash, ularni xalqaro standartlar asosida tavsiflash va global ilmiy axborot tizimlari bilan integratsiya qilish vazifalarini ham bajaradi.

Ilmiy jamoatchilik tomonidan keng foydalaniladigan portallardan yana biri – Ziyonet ta'lim portali hisoblanadi. U orqali darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik materiallar va ayrim ilmiy maqolalar elektron shaklda taqdim etiladi. Albatta, Ziyonet ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ammo u ham to'liq akademik repozitoriy talablariga javob bermaydi. Chunki repozitoriyda har bir material xalqaro standartlar asosida metama'lumotlar bilan tavsiflanadi va ilmiy bazalar bilan integratsiya qilinadi. Yurtimizda adabiyot.edu.uz platformasi ham mavjud. U asosan darslik va o'quv qo'llanmalarini ekspertizadan o'tkazish hamda ularga nashr etish uchun tavsiya berish jarayonlarini raqamlashtirishga xizmat qiladi. Ammo elektron kutubxona yoki ilmiy repozitoriy funksiyasini to'liq ta'minlamaydi.

Natijada ilmiy va ta'lim adabiyotlari turli manbalarda tarqoq holda saqlanmoqda. Ayrim materiallar universitet saytlarida, boshqalari ta'lim portallari yoki ilmiy jurnallar saytlarida joylashgan. Ayrim tadqiqotchilar o'z ishlarini Google Scholar yoki ResearchGate kabi xalqaro platformalarga yuklashadi. Bu esa ilmiy axborotning markazlashmagan tarzda tarqalishiga sabab bo'lib, kerakli adabiyotlarni topishni qiyinlashtiradi.

Jahon tajribasi bu borada boshqacha yondashuvni ko'rsatadi. Masalan, Rossiya'da CyberLeninka ochiq ilmiy kutubxonasi, Yevropa mamlakatlarida OpenAIRE infratuzilmasi orqali ilmiy ishlar yagona platformada jamlangan. Bunday tizimlar ilmiy ma'lumotlarning ochiq-ligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muammoga faqat tanqid nuqtayi nazaridan emas, amaliy yechimlar orqali yondashish muhim. Avvalo, barcha universitetlar huzuridagi nashriyotlarni ixtisoslashtirish, har bir darslik hamda monografiyani nashrga qabul qilishdan oldin mustaqil mutaxassislar nigohidan o'tkazish, plagiat tekshiruvini amalga oshirish, muharrirlik va musahhihlik ishlarini qat'iy ta'minlash lozim. Oliy ta'lim muassasasi reytingida jiddiy o'rin tutadigan darslik va monografiyalarning nashr xarajatlarini oliyog'ibudjeti yoki maxsus ilmiy grantlar hisobidan qoplash mexanizmini yanada kengroq joriy etish kerak. Bu jarayonda ilmiy axborot almashinuvini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.



qilinadigan mablag'ni to'lay olmaydigan muallif nashriyotdan yordam so'raydi. Nashriyot ham beg'araz "yordam qiladi". Ya'ni, chiqish ma'lumotlariga 200, 300, hatto "mendan nima ketdi", deb 1000 dona adadniam yozib beraveradi. Muallif bo'lsa, bir donasini majburiy nusxaga, bir donasini Milliy kutubxonaga, uch-to'rt donasini o'zi xizmat qilayotgan oliyog'ib kutubxonasiga topshiradi. Vassalom.

Ta'kidlanganidek, bunday nashrlarning na imlo xatosi o'qilgan, na tuzukroq tahrir qilingan. Negaki, bu xizmatlar pul turadi. Musahhih ham, muharrir ham tekinga ishlamaydi. Aksar mualliflar esa "o'zi besh donaga zo'rg'a pul topyapman. Iltimos, o'zim o'qiganman, endi bu xizmatniam qo'shib, to'lovini ko'paytiranglar", deb turib oladi. Shuning uchun nashr etilayotgan aksar darslik va monografiyalar shunchaki ofis printerlarida chop etilgan kitoblarga aylanib qolgan. Biz suhbatlashgan noshirlar kitoblardan tug'ilayotgan, faqat nomlari va dastlabki sahifalarini o'zgartirgan holda qayta nashr etilib, yangi kitob sifatida taqdim etilayotgan bosma mahsulotlar haqida, orqa-oldiga qaramay bir-birlaridan ko'chirilayotgan "ilmiy ish"lar, "monografiya"lar, uslubiy va o'quv "qo'llanma"lar hamda "darslik"lar haqida "tesha tegmagan" ancha gaplarni aytdi. Eshitib, hayratga tushadi kishi.

Xalqaro amaliyotni kuzatsak, masalan, Yevropa va Amerika universitetlarida darslik yoki monografiya nashr etish oddiy jarayon emas. Ko'plab universitetlarda universitet nashriyotlari – Oxford University Press, Cambridge University Press, Harvard University Press kabi tizimlar faoliyat yuritadi. Ularda kitob nashrga qabul qilinishidan oldin kamida ikki yoki uch mustaqil mutaxassis tomonidan ilmiy taqrizdan, math plagiat tekshiruvidan o'tkaziladi. Muharrir va musahhihlar bilan ishlanadi. Kitobning ilmiy qiymati, uslubiy va manbalarining ishonchiligi tekshirilmaguncha, chop etishga ruxsat berilmaydi. Kitob haqiqiy ilmiy natijaning e'tirofi hisoblanadi hamda o'quv jarayonida ham keng qo'llanadi.

Bir tomon gapirgan joyda haqiqat bo'lmaydi. Shuning uchun mualliflar, ya'ni oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining fikri bilan ham qiziqdik. Aksar o'qituvchilarning lo'nda javobi shunday bo'ldi: "Kitob chiqarmasak, "shaxsiy ish reja" bajarilmaydi".

Shaxsiy ish rejasi haqida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 10-sentyabrda 20-2018-sonli buyrug'ii ilovasida aniq ta'rif berilgan. Buyruqdan anglashiladiki, shaxsiy ish rejasi va unda nazarda tutilgan uslubiy va o'quv

harakat qilib kitob yozishga kirishmoqchi bo'lsa, kelasi yili qaysi fanni o'qitishini bilmaydi. Asosiy muammolardan yana biri, ushbu ilmiy adabiyotlarni yaratish uchun aniq buyurtma tizimi mavjud emas. Holbuki, ayrim universitetlarda bunday adabiyotlar davlat buyurtmasi asosida tayyorlanadi".

"Juda unchalikmas, – dedi bu suhbat tafsilotini eshitgan o'qituvchi Rahmat Sul'tonov. – Davlatimiz ilmiy maqolalarini xorijiy jurnallarda chop ettirgan barcha olimlarni qo'llab-quvvatlaydi. Olimning ilmiy maqolasi xorijiy davriy nashrdan pullik asosda chop etilsa, to'langan mablag' maqola muallifiga oliy ta'lim muassasasi tomonidan qaytariladi. Ayrim muassasalarda bu jarayon matusaddilarning sovuqqonligi tufayli yo'lga qo'yilmagan. Kitoblar nashri bilan bog'liq malomatda esa jon bor. Nashr qilinayotgan qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar, darsliklar va hokazolar g'ij-g'ij xatoga botib ketdi. Ayrim darsliklarni o'qib hayron qolasan, qurama kashtadan farq qilmaydi. Shuniyam kengashlar o'tkazgan, vazirlik ma'qullagan, kitobni ilmiy ishlariga mas'ullarimiz varaqlab ham ko'rmay, kutubxonaga qabul qilgan".

Rivojlangan mamlakatlarda bu masala qanday hal etilishi bilan qiziqdik. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya universitetlarida nashr etiladigan darslik va monografiyalar odatda muallifning shaxsiy mablag'i emas, universitet yoki ilmiy grantlar hisobidan chop etiladi. Ko'plab universitetlarning maxsus nashriyotlari kitobni bir necha bosqichli ilmiy ekspertizadan o'tkazadi, mustaqil mutaxassislar fikri olinadi, bu jarayon xalqaro amaliyotda peer review deb ataladi. Unga ko'ra, taqrizchilar kitobning ilmiy darajasi, manbalarining ishonchiligi, uslubiy va yangi o'yalarini baholaydi. Agar kitob ilmiy talablarga javob bermasa, nashrga qabul qilinmaydi.

Yaponiya va Janubiy Koreya universitetlarida nashr etiladigan darslik yoki monografiyalar universitetning maxsus tahririyat kengashi tomonidan bir necha bosqichli tekshiruvdan o'tkaziladi. Matndagi imlo, uslub, manbalar, hatto iqtiboslarning to'g'ri keltirilgani ham alohida tekshiriladi. Kitob universitet byudjeti yoki davlat ilmiy dasturlari hisobidan chop etiladi hamda mamlakatdagi barcha universitet kutubxonalariga tarqatiladi.

Bizda professor-o'qituvchilardan darslik va monografiyalar nashr etish talab qilinadi, ammo bu ishni moliyalashtirish mexanizmi ko'p hollarda mavjud emas. Natijada kitob ilmiy tadqiqot

Yosh-yalang kitob qo'ltiqab yurmay, veb-saytdan audio variantini eshitib qo'ya qoladigan, talabalar yigirma sahifalik referat yo kurs ishini "nusxa ol va joyla" usulida o'n daqiqada tayyorlaydigan, ilgari uch-besh yilda zo'rg'a bitta darslik yoki monografiya yozgan domlalar endilikda bir yil ichida to'rt-beshta mahsulot tayyorlaydigan bo'lib ketdi. Yana ayrim turdagi, jumladan, ilmiy yo'nalishdagi kitoblarni o'qiyotganlarning soni ham o'zgargan. Ustoz aytgan kitoblarni o'sha vaqtlarda uch kishi o'qigan bo'lsa, bugunga kelib ba'zi kitoblarni faqat bir kishi – muallifning o'zi o'qiydigan bo'lib qoldi.

Oliy ta'lim dargohlarida xizmat qiladigan, ko'pincha o'zini "domla" deb tanishtiruvchi kishilar, o'ylab ham o'tirmay "yumaloq-yostiqlik" holidagi bosma mahsulotlarni nashr ettirishga ruju qo'ydi bugun. Ayrim ilmiy yoki ilmiy-ommabop monografiyalarni, darsliklarni, o'quv yo uslubiy qo'llanmalarni o'qigan kishi ularning boshi qayerda-yu keti qayerdaligini topgunicha ona suti og'zidan keladi.

Nashr etilayotgan bunday bosma mahsulotlar ichida shundaylari borki, besh-oltita kitobdan yaxlit boblar ko'chirib olingan. O'zini muallif deb da'vo qilayotgan kimsa esa "tadqiqotchi Falonchining bu qarashlarini yetuk olim Pismadonchi quyidagicha bayon qilgan", degan so'zlar bilan bir-biriga "payvandlab" chiqqan. Aksar olimlar o'zi yozgan kitobning nomi o'zgarib, boshqa kimsa tomonidan nashr etilib, aynan o'ziga dastxat bilan taqdim etilayotganiga ham, mualliflik huquqi oyoqosti qilinayotganiga ham e'tibor qilmay qo'ydi. Qayerdan qilsin? Axir, "Voy xumpar-ey, o'zimga kitobimni ko'chirib olib, o'zingning nomingdan nashr qilibsang-ku", deyish uchun ham kitobni o'qish kerak-da. Bu jarayon bilan yaqindan tanish bo'lmagan kishi so'zimizni mubolag'aga yo'yishi mumkin. Ularga isbot o'rinda aytillar gap shu: xohlagan oliy ta'lim muassasasining kutubxonasiga kiring. Minglab monografiyalar bilan darsliklar bor. O'qib ko'ring...

Aslida, bunday holatlarga dunyo amaliyotida ham jiddiy muammo sifatida qaraladi. Masalan, Germaniyada plagiat sabab yuqori lavozimdagi siyosatchilar ham lavozimidan ketishga majbur bo'lgan holatlar mavjud. 2011-yilda mamlakatning mudofaa vaziri bo'lgan Karl Teodor Guttenberg doktorlik dissertatsiyasida plagiat aniqlanganidan keyin ilmiy darajasidan mahrum qilingan va vazirlik lavozimini tark etgan. Bu holat Yevropa universitetlarida akademik halollikka qanchalik jiddiy qaralishini ko'rsatadi. Shu bois, ko'plab mamlakatlarda ilmiy ishlar maxsus plagiat tekshiruv tizimlari orqali nazorat qilinadi.

Bizda mualliflik huquqini himoya qilish borasidagi qonunchilikda belgilangan jazo choralarini ham ko'p holda mo'tadil hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunida mualliflik huquqini buzganlik uchun ma'muriy yoki fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda bunday holatlar sudgacha kamdan kam yetib boradi. Natijada ayrim mualliflar o'z asarini boshqalar ko'chirib, qayta nashr etishi yoki o'zgartirgan holda tarqatishiga nisbatan jiddiy chora ko'rishga urinmaydi. Bu esa ilmiy muhitda mualliflik huquqiga nisbatan mas'uliyat va ehtirom madaniyatining yetarli shakllanmasligiga olib keladi.

Nashriyotlar soni ko'payib, mingdan oshgan bugungi kunda sifat emas, faqat son qolganay bo'yo. Yo'qsa, nashr etilayotgan darsliklar va monografiyalar plagiat tekshiruvdan o'tkazilmay, boz ustiga, tahrirsiz va burchalik imlo xatolari bilan chop etilmas edi. Bir tomondan, holatning bu darajaga yetib kelishiga faqat nashriyotlar sababchi emas. Bunga oliy ta'lim muassasalari-da faoliyat yuritadigan ilmiy yoki uslubiy kengashlar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish va nashr guvohnomasini berish uchun tashkil etilgan adabiyot.edu.uz platformasi, ichki va tashqi taqrizchilar hamda shunday adabiyotlarni "bo'ldimi-bo'ldi" qabilida qabul qilib, o'qituvchining shaxsiy ish rejasi bajarildi, deb o'tirganlar ham sababchi.

Boshlanishi 1-sahifada.

# QALTIS "SVETOFOR" LAR



Eshqobil SHUKUR

Xo'sh, Abdulla Orif ramziy ma'noda aytgan svetofordan millatni kimlar o'tkazib qo'yishi kerak?

Birinchi navbatda bu ishga ziyolilar, davlat va jamoat arboblari, din peshvolari mas'uldirlar.

Biz qalamga tortgan mavzu yangi asr tuqqan muammo emas, balki necha-necha yuz yilliklardan beri kelayotgan, hali svetofor degan yo'ko'rsatkich haqida tasavvur ham bo'lmagan zamonlarda paydo bo'lib, millatni domiga tortgan, bizning asrimizga kelib, yanada "gurkirab" ketgan muammodir. Shuning uchun uni eskidan eski, yangidan yangi muammo, desak, xato bo'lmaydi. Zero, bu masala allaqachon yangi yuzillikning qaltis svetoforlaridan biriga aylanib ulgurdi.

O'zbek jadidlari rahnamosi Mahmud-xo'ja Behbudiyning "Bizni kemiruvchi illatlar" nomli maqolasi yozilganiga bu yil 110 yildan oshdi. Bu maqolada ma'rifatparvar bobomiz to'y va ma'rakalardagi millatni tanazzulga eltadigan illatlar haqida bong urgan edi. Lekin o'tgan shuncha yil ichida biz bu borada ortga chekinmadik, to'xtovsiz poygalar girdobiga tushib qolib, faqat va faqat "oldinga ketdik", bu olatasir kimo'zarda hammamiz cheмпionlikni iddao qildik.

Ha, bu masalada hech birimiz, men chekkada edim, deb maqtana olmaymiz, chunki har birimiz bu poygada ot choptirib ko'rganmiz. Hatto, ba'zilarimiz egnimizdagi yoqasi idragan ko'yagimizni almashirmasak-da, ultoni yemirilgan poyabzalimizni yangilamasak-da, "o'nta qo'y nima bo'ladi, olti yuz shisha aroq nima bo'ladi", deya dasturxonni daryo qilib to'y qilganmiz.

Yaqinda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi yig'ilishida muhim bir ma'lumot aytib o'tildi: "O'rganish va tahillarga ko'ra, 2024-yilda odamlarimiz to'yxonalarda bo'lgan to'y uchun jami 30 trillon so'mdan ko'p mablag' sarflashgan. To'y kortejlari, quda chiqirig' kabi boshqa qator tadbirlarning xarajatlari bunga kirmaydi".

Albatta, hammani to'ya yetkazsin! To'y - tinchlik, farovonlik belgisi. Do'st-u yorlar, jigarlarning qizg'in diydorlashuv kuni, araz-ginalar unutiladigan kun. O'zbek borki, farzandlarimning to'yini ko'ray, degan ezgu niyat bilan yashaydi. Bu yaxshi. Lekin ko'pchigan dabdaba va as'asa, ahmoqona isrofgarchilik va topganini bir kunda shamolga sovurish



kabi illatlar millat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. "Salbiy ta'sir" deb kitobiy gap qilmaylik, aslida, bu millatning oyog'idan tortib, chohga sudraydigan illatdir.

Hoy-u havas va dabdabani ishlab chiqishda dunyoda bizga yetadigan yo'y, bu ishda har birimiz "qudratli" bir fabrikaga aylanamiz. Har to'ya, har ma'rakaga bir yangilik qo'shmasak, ko'nglimiz tinchmaydi. Bunday paytlarda otini to'g'ri yozolmaydigan go'vloylarimiz ham birdan kashshof bo'lib ketadilar.

## BIR KUNLIK TO'Y VA TO'RT YILLIK TA'LIM

Mayli, hali-beri hoy-u havaslardan tiyilishga ko'zimiz yetmasa, hech bo'lmaganda, yuqorida aytib o'tilgan trillon-trillon mablag'ning ellik foizini bolalarimizning ilm o'rganishiga, fanga qiziqishlariga, ma'rifati bo'lishiga sarf qilaylik. Shunda ham ko'p narsa yutamiz. Ota-ona uchun eng katta to'y farzand kamoli emasmi, o'g'li va qizining oliy ma'lumoti bo'lishi, olim bo'lishi, el ko'rguday oqil inson bo'lib yetilishi emasmi? Albatta, bir kunlik to'y, qanchalik dabdabali bo'lsa ham, baribir, bu natijani berolmaydi. Aksincha, to'y-u ma'rakalardan orttirib, farzandlarni hayotga tayyorlash, ilm-fanga tayyorlash,

tarbiyalash uchun yillar davomida qilingan xarajatlari va harakatlar beradi bu natijani.

Ba'zan bitta dabdabali to'ynig' puli o'nta talabani universitetdagi to'rt yillik kontrakt pulidan oshib ketadi. Axir, dunyoni kaftdagiday ko'rib turibmiz-ku, hayotni faqat ilm-fan, tafakkur o'zgartirgan ekan. Ilm rivojlanmagan yo'ylarning odamlari hamon omochini sudrab yurgani ham ayon.

Hashamatli restoranlarda minglab odamlarni yig'ib o'tkazadigan katta-katta to'ylar bilan millat bolalarining qaddini ko'tarib bo'lmaydi (garchi bu to'ylar shu bolalar uchun qilinayotgan bo'lsa ham). Allaqanday ko'lmak davralarning xizmatchisiga aylanib qolmasligi, qay-lardadir mardikor bo'lib yurmasliklari uchun ularning tanglayini adabiyot bilan, manglayini ilm-fan bilan ko'tarishimiz kerak. Farzandlarimizga mayda-chuyda hoy-u havaslar va o'tkinchi dabdaba emas, ilm-fan qiziq bo'lishi kerak. Ularni o'zimizga o'xshatib, soxta hashamatlarga o'rgatib qo'yishimiz - o'zimizga choh qazish bilan barobar.

Endi quyidagi ma'lumotlarga diqqat qiling. 2024-yilda yurtimizda 271 ming 776 ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, ajrimlar soni 45 ming 135 ta yetgan, shundan 28,5 foizi 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

Bir-ikki yilga bormay "aza"ga aylangan 45 mingdan ko'p to'y uchun necha sandiq pul ketgan. Qolaversa, 45 ming 135 ta buzilgan oilani bir joyga to'plab, ularning holini tasavvur qilib ko'ring. Qancha g'urbat, qancha musibat...

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarim yilligida O'zbekiston bo'yicha 95,3 mingta nikoh holatlari FHDYO organlarida qayd etilgan. Shu davrda 23 ming 300 ta ajrim bo'lgan.

Bu ma'lumotlarga ko'ra, bir yarim yil ichida 68 ming 435 ta oila buzilyapti. Bu raqamga sharh yozaman desangiz, bir kitob bo'ladi. Lekin kichik bir mulohazani ta'kidlab o'tish joiz. Bu buzilishlarning asosiy sababi hayotga yengil-yelpi qarash, ilmsizlik, saviyasizlik, fikrsizlik, quruq dabdaba-yu hashamatga o'chlik, ma'nau ochko'zlik kabi illatlardir.

Bir gal hayit kunida onasi qazo qilgan birodarimizning uyiga fohitaga kirib o'tdik. Qaytib chiqishimizda, shu yerda turgan ikki-uch kishining: "Yaxshi ish bo'lmadi. Falonchi onasining hayitiga qo'y so'yib, taom tarqatishi kerak edi", degan gapini eshitdim. Holbuki, qo'l uchida zo'rg'a kun ko'radigan o'sha "falonchi" yillab kasal yotgan onasini davolataman deb do'xtirma-do'xtir yugurib, bor-budini sarflab, qarzga o'tirib, ham moli, ham jonidan ayrilib bo'lgandi. Buning ustiga yetti, is, qirg' kabi ma'rakalarini o'tkazgan edi. Endi yana qo'y so'yib, pista-bodomi dasturxon yoysinmi? Bu kimga va nimaga kerak? Shuncha narsaning o'rni marhum uchun bir hovuch fohita afzal emasmi? Bu masalada muhtaram din peshvolarimiz qattiq turishlari kerak bo'lyapti.

Men bu o'rinda to'ylar va ma'rakalarga ketayotgan sarf-xarajatlari, uvol bo'layotgan tonna-tonna noz-u ne'matlar, keraksiz ashqol-dashqollar-u paydo bo'layotgan yangi, betayin rasm-u rusumlar haqida gapirib o'tirishdan tiyildim. Chunki bu narsalarning shuncha ro'yxatini bersam ham, o'n qog'oz kamlik qiladi. Qolaversa, bu ro'yxatni hammamiz yaxshi bilamiz, illo, har birimiz (shu jumladan, o'zim ham) bu jarayonning ishtirokchisimiz. Chunki to'y va ma'raka bizda katta oqimga aylanib bo'lgan. Bu oqimga kirdingizmi,

qanchalik qarshi suzmang, chiqib ketishingiz qiyin bo'ladi. Xohlaysizmi-xohlamaysizmi, ko'p keraksiz rasm-u rusumlarni bajarishga majbur bo'lasiz. Shuning uchun bu oqimni faqat el bo'lib birlashib to'xtatish mumkin.

Pandemiya davrida 30 kishilik to'ylarni ko'rdik. Ba'zilarida men ham qatnashdim. 30 kishilik to'y qilganlarning birovdan kam bo'lib qolganini ko'rmadik, obro'siyam tushib ketgani yo'y. Aksincha, katta to'ya ketadigan pulga birovi kelinkuyovga uy olib bersa, birovi farzandi uchun do'kon ochib berdi, birovi bolasini xorijda nufuzli universitetda o'qitdi. Shuni alohida aytib o'tishim kerak, men taniydigan, ixchamgina to'yi bo'lgan o'sha yoshlar baxtli bo'lib ketishdi. To'yi kichik bo'lgani bilan nasibasi qisq bo'lmadi, aksincha, baxti butun bo'ldi.

## ME'YOR BUZILGANDA...

Gap kelganda, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan har jihatdan ibratli bir voqeani havola qilib o'tish joiz, deb o'yladim. Germaniyaga o'qishga borgan bir arab yigiti hikoya qiladi:

"Germaniya sanoatlashgan, o'ta rivojlangan davlat. U yerda turli sohalarga oid mahsulotlarning eng saralari ishlab chiqariladi. Ko'pchilik, bu mamlakat aholisi nihoyatda to'kin-sochin, o'ta dabdabali yashaydi, deb o'ylaydi. Safarimdan oldin men ham shu fikrda edim. Hamburg shahriga kelib tushganimga, u yerdagi tanishlarim bir restoranda ziyofat uyushtirdi. Restoranga bordik. Qarasak, restoranda odam kam. Bir nechta yoshi katta ayollar bor, xolos. Bir chetdagi stolda yosh er-xotin o'tiribdi. Oldilarida ikkita tarelkada ovqat va ikkita ichimlikdan boshqa narsa yo'y. Biz ham bir stolga o'tirdik. Qorimiz ochqab ketgandi. Shunga sherigim ko'proq ovqatga buyurtma berdi. Restoran tinch ekan, ovqat ham tezda keldi.

Ovqatlanib bo'lib, turib ketayotganimizda ovqatning yarmi tarelkada ortib qolgan edi. Restoran eshigiga yetib bormagan ham edikki, kimdir bizni chaqirdi. Qarasak, yoshi ulug' xonimlar restoran boshlig'iga nimalarimdir uqtiryapti. Bilsak, bu ayollar stolda ko'p ovqat qoldirib ketayotganimizdan norozi ekan. Sherigim: "O'zim

buyurtma bergan ovqat, pulini to'lab qo'ydik, sizlarga daxli bo'lmagan narsaga nega aralashasizlar?!" dedi. Xonimlardan biri bizga qattiq g'azab bilan qarab turdi-da, telefon oldiga borib kimgadir sim qoqdi. Ko'p o'tmasdan, rasmiy kiyimda bir kishi kirib keldi. U o'zini Ijtimoiy ta'minot muassasasining zobiti deb tanishtirdi. Bizga 50 marka jarima soldi. Biz javob qaytarolmadik. Sherigim uzr so'rab, 50 marka to'ladi. Zobit samimiy ohangda: "Isrof bo'lmisligiga ko'zingiz yetgan taomga buyurtma beringlar, pul o'zingizniki, lekin resurslar barchaniki. Dunyoda ko'plab odamlar resurs, oziq-ovqat taqchilligiga duch kelmoqda, sizlar esa isrof qilaysizlar", dedi.

Biz rosa hijolatda qoldik. Uning gaplari haq edi. Sherigim o'sha jarima qog'ozini suratga olib, har birimizga esdalik sifatida bir nusxadan berdi. Biz bu qog'ozni uvol va isrofning zararini doim eslatib tursin, deb, xonamiz devoriga eslab qo'ydik! "Pul o'zingizniki, lekin resurslar barchaniki!" Alloh taolo marhamat qilgan: "Yeb-iching, (lekin) isrof qilming! Chunki U zot isrof qiluvchilarni sevmas!" (A'rof, 31)".

Butun olamni, koinotni ham, quyosh tizimini ham, Yer sayyorasini ham muvozanatda tutib turgan yagona bir qonun bor. Bor-yo'g'i bir so'zdan iborat bu qonun - me'yor! Agar ularning harakat tezligida yo aylanishida, yo boshqa bir faoliyatida o'ziga me'yor buzilsa, butun koinotga, buyuk tabiatga xavf-xatar soladi. Jamiyatda ham shunday. Har bir oilada ham, har bir odamning xatti-harakatlarida ham bu qonun ustuvor bo'lishi kerak.

Zero, jamiyatimizdagi qaltis svetoforlardan biri dabdabali to'ylar va ma'rakalarimizdir. Millatning bu svetofordan o'tishida doimiy muammolar bor. Hatto, ba'zilar "moshin urib ketgan"i ham rost.

Xullas, el-yurtimizni to'ydan, shu bilan birga, me'yordan ham ayirmasin.

Boshlanishi 1-sahifada.

Ko'rinadiki, bu o'rinda mullato'rg'ay intazorlik va sog'inch ramzi sifatida ishlatilyapti. Umuman, bu obraz mumtoz adabiyotda emas, ko'proq xalq og'zaki ijodida uchraydi. Masalan, Fariddin Attorning "Mantiqut-tayr" asarida qush Yaratganga zikr aytayotgan so'fiylarga mengzatiladi. Shundan buyon to'rg'aylarga nisbatan mullato'rg'ay, so'fito'rg'ay iborasi ishlatib kelingan bo'lishi mumkin. Huvaydo g'azalida keladigan "Arzimni aytdim, bodi sabog'a" misralarida ham to'rg'ayga ishora bor. Tong shamoli oshiqning izhorini ma'shuqaga yetkazishini so'ragan bu misralarda, elchi-xabar tashuvchi to'rg'aydir, ehtimol.

## "Sayrab keladi to'rg'ay..."

Bu satrlar bilan kuylangan qo'shiq uch-to'rt yillar oldin mashhur bo'lib, davralarda aylana boshladi. "Lim-lim tomosha" deb nomlangan qo'shiq Toshkent viloyatida yangi ovoz va ohang bo'lib jarangladi. Keyinroq jamoa shu qo'shiq bilan 2023-2025-yillar oraliqida turli tanlovlarda g'olib bo'ldi. Shunday qilib, gap Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Madaniyat bo'limi qoshidagi mashhur "To'rg'ay" folklor-etnografik xalq ansamblining faoliyati to'g'risida.

Joriy yil Navro'z bayramiga bag'ishlab "Yangi O'zbekiston" bog'ida o'tkazilgan tantanada "To'rg'ay" folklor-etnografik xalq ansambli "Ko'pkari" xalq termasi bilan ishtirok etdi. Ularning chiqishi gulduroq qarsaklar bilan kutib olindi. Jamoa sakkiz marotaba shunday asosiy bayram tantanalarida ishtirok etgani - uning respublikamizdagi dongdor folklor jamoalaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Sayroqi ovozi, sho'x sozi bilan O'zbekistonda maftun qilib kelayotgan "To'rg'ay" qanday jamoa o'zi?

## Boysunlik oilaning ko'chishi

Hammasi 1920-yillardan boshlangan. Zamon og'ir bo'lib, boy-badavlat kishilar tazyiqqa uchray boshlagach, bor-budini kolxoza topshirgan Jo'ra polvon baribir sovetlardan qutula olmasligini sezib, Samarqandga ko'chib qildi. Oila Samarqandning Bulung'ur tumaniga ko'chib kelgach, dastlab ancha qiyinchiliklarga uchraydi. Bulung'urning Tumshuq, Bedana kabi qishloqlarida 20 yildan ziyod o'rtamiyona hayot kechirdi. Bu orada Ikkinchi Jahon urushidan so'ng SSSR qo'riq yerlarni o'zlashtirishga katta e'tibor qarata boshlaydi. Xususan, hududi hozirgi Toshkent va Sirdaryo viloyatida bo'lgan Dalvarzin (qisman)

# BOYSUNDAN OQQO'RG'ONGACHA

cho'li va Mirzacho'lni o'zlashtirishga katta kuch tashlanadi. Cho'lquvarlarga davlat tomonidan muayyan imtiyoz va moddiy ko'maklar ajratilgan. Ayni mana shu omil sabab Jo'ra polvonning to'rt o'g'li 1946-yili hozirgi Oqqo'rg'on tumani Samarqand qishlog'i hududiga o'rmasladi.

Boysun-Qo'ng'irotning to'rt yigiti cho'lquvarlik barobarida elda obro' topib, xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlay boshlaydi. Bu orada ularning yaxshi yashayotganini ko'rgan boshqa qarindoshlar ham Bulung'urda Oqqo'rg'onga ko'chib kelishadi va bu jamoat kengayib-ko'payib samarqandliklar qishlog'i, Samarqand qishlog'i deb nom oladi. Bu joy bugun Oqqo'rg'on tumani "Zarbdor" MFY hisoblanadi.

## Bulung'urda tug'ilgan baxshi

Boysun-Qo'ng'irotni elidan bo'lgan Jo'ra polvonning o'g'li Qurbon Bulung'urda tug'ildi, bulung'urlik bo'lib ulg'aydi. Baxshilari so'zga chechan shoir-u, davralarda improvizatsiyaga boy Bulung'ur dostonchilik maktabi va uning mashhur vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li darrov xayolingizga kelgandir. Shu bois ham, mazkur hikoyamiz sababchisi "To'rg'ay" ansambli Boysun va Bulung'ur dostonchilik maktabidan suv ichgan turnako'z buloqlarday: uch bora yurt o'zgartirgan qo'ng'irotni yigit-qizlari ich-ichidan to'lib-toshib kuylayaveradi, yillar o'tadi, yangi avlodlar yetishib chiqaveradi.

Yuqorida aytganimizdek, Qurbon 1946-yili otasidan oq fohita olib, Mirzacho'lni o'zlashtirishga o'tlangan o'z davrining romantik yoshlari safiga kirib, Oqqo'rg'onga ko'chib keladi. Shu yerda palak yozib, qarib, el orasida Qurbon chol, Qurbon baxshi nomini oladi - u goh-gohida o'zi kabi yurt o'zgartirgan aka-ukalari, qo'ni-qo'shnilari bilan bir Boysunni, bir Bulung'urni eslab, har zamonda doston aytib turar, o'lsida qolgan ota yurtini shu tariqa yodga olardi.

Qurbon choldan keyin sulolaning davomchisi bo'lib o'g'li Ergash baxshi qoldi. Ergash maktabda matematikadan dars bergan, ayoli Ma'rifat esa boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bo'lgan. Ma'rifat aya ham yoshligidan o'lan, lapar va xalq termalarini aytishga qiziqqani uchun er-xotin oilaviy folklor jamoasi tuzishni maslahat qiladi. Qisqasi, boysunlik Jo'ra polvonning nabirasi, bulung'urlik

Qurbon chopag'oning o'g'li oqqo'rg'onlik Ergash muallim 1989-yili "To'rg'ay" etnografik ansambliga asos soladi.

## Parvoz yillari

2015-yili Ergash Qurbonov, 2022-yili Ma'rifat Qurbonova vafot etadi. Loyiha asoschilari dunyodan o'tgan yillar "To'rg'ay" uchun sinovli davr bo'ldi. Ammo jamoa sinovlarda sinmadi, aksincha, toblandi. Shu paytdan boshlab ansambliga Ergash baxshining o'g'li Alisher Qurbonov badiiy rahbarlik qildi va otasi boshlagan ishni munosib davom ettirdi.

"To'rg'ay" nomi jamoaga 1991-yilda berilgan bo'lsa-da, uning haqiqiy parvozi aynan keyingi yillarga to'g'ri keladi. Folklorshunos olim, professor S.Yo'ldosheva tavsiyalari asosida shakllangan ansambli yillar davomida repertuarini boyitib, sahna madaniyatini sayqallab bordi. 1994 va 1999-yillarda respublika tanlovlarida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoa xalqaro maydonlarga ham chiqib boshladi. Shveysariya elchixonasi tomonidan o'tkazilgan "Charx" festivali, Xitoydagi xalqaro turizm festivali, Janubiy Koreyadagi "Buyuk Ipak yo'li davlatlari madaniyati" anjumanida ishtirok etdi. Ayniqsa, 2015-yili jamoa hayotida muhim voqea yuz berdi - ansambliga "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoni berildi. Bu, albatta, uzoq yillik mehnatning munosib bahosi edi.

Keyingi yillarda ham jamoa yirik xalqaro tadbirlarda, jumladan, Xalqaro baxshichilik festivali, Xalqaro maqom anjumanini, "Ipak va ziravorlar", "Boysun bahori" festivallarida rang-barang chiqishlari bilan tomoshabinlar e'tiborini qozonib kelmoqda.

## "Yodgor"ning tug'ilishi

2017-yili Oqqo'rg'on tuman madaniyat bo'limi qoshida va "To'rg'ay" jamoasi negizida bolalar folklor-etnografik ansambli - "Yodgor" dastasi tuzildi. Shu yillarda mamlakatimizda ham hayot maromi o'zgargan, yurtda Yangi O'zbekiston shamoli kezar edi. Bu o'zgarish va e'tibordan "To'rg'ay" jamoasi ham bahramand bo'ldi. Ko'p yillik mehnatlari inobatga olinib, 2020-yili "To'rg'ay" jamoasiga viloyat hokimligi tomonidan avtobus taqdim qilindi. Bundan



tashqari, jamoa respublika miqyosidagi asosiy bayram tomoshalariga muntazam taklif etila boshlandi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yilda yoshlar bilan uchrashuvi paytida har bir tuman hokimligi tavsiyasi asosida 5 nafar abituriyent madaniyat va san'at sohasida o'qishga qabul qilinishi belgilandi. Shu asosda Alisher Qurbonovning "To'rg'ay" tarkibida toblangan qizlari - Husnora va Diyora Madaniyat va san'at oliygohiga o'qishga qabul qilindi. Alisher aka shu qizlari bilan tashkil qilgan "Yodgor" dastasi 2022-yili "Xalq jamoasi" unvoniga sazovor bo'ldi. Ana endi, bir yonda "To'rg'ay", bir yonda "Yodgor" xalq ansambli qadim va navqiron ohanglarda jo'shib kuylay boshladi.

## Bugungi kunlar

Alisher Qurbonov 2022-yili Oqqo'rg'on tumani tarix va o'lakshunoslik muzeyi direktori vazifasiga ishga tayinlandi va badiiy rahbarlikni taniqli madaniyat xodimi Abdulla Safarovga topshirdi.

Qayd etish lozimki, bu jamoaning chiqishlari oddiy nag'ma emas - ularda xalq hayoti, urf-odat va an'analari sahnada jonlanadi. "Ko'pkari" kabi marosim kompozitsiyalari orqali ular o'tmishni buguniga bog'lab, tomoshabinga tirik manzara taqdim etadi.

Ta'kidlash joizki, 2020-yilda butun dunyo pandemiyasi bilan to'xtab qolganidek bo'lgan bir

paytda ham "To'rg'ay" ijodan uzilmadi. Masofaviy mashg'ulotlar, yangi dasturlar ustida izlanish - bular jamoaning san'atga sadoqatini yana bir bor namoyon qildi.

Bugun "To'rg'ay"ning repertuari keng va boy. Unda "Bo'ta solay", "Yil boshi", "Bo'zto'rg'ay", "Kichkina bola", "Binafsha", "Qiz quvdi", "Lim-lim tomosha" kabi qadimiy xalq qo'shiqlari, lapar va o'lanlar, marosim sahnalari alohida o'rin tutadi. Bu asarlar orqali jamoa xalqning xotirasini tiriltiradi, desak, ayni haqiqatdir.

Sahnada qadim turkiy ohanglarda kuylayotgan "To'rg'ay" - bir oilaning yuz yillik tarixi hamdir. O'lis 1920-yillarda Boysunda Jo'ra polvondan boshlangan hikoya 2026-yilga kelib Oqqo'rg'on katta bir qishloqqa, o'nlab so'lim qo'shiqqa, sahna uzra tomoshabinlarni sehrlaydigan mo'jizali tomoshaga aylandi.

Bugun Oqqo'rg'on tuman tonglar otadi. O'tgan zamonlarda bir tomoni Dalvarzin, bir tomoni Mirzacho'lni bo'lgan manzillar uzra charx urib, baland ovozda minglab to'rg'aylar kuylaydi. Ular zorlik va xorlikda o'tgan ko'hnayillardan, netekis yo'lardan aytadi, o'zini qarq'ab lahada kirgan bobolardan aytadi. Kulib-kuldirib aytadi, yig'lab-yig'lab aytadi. Baxshilar avlodi bu o'ti nolarni qo'shiq qilib charchamaydi.



# YANGI ZAMON ILMI



## Boshlanishi 1-sahifada.

Oradan qariyb ikki asr o'tib, Xorazmda Sharqning yirik ilmiy markazi – "Dor-ul hikma va ma'rifa" Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'munning sa'y-harakati hamda qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning bevosita rahnamoligida tashkil qilingan edi. Fanning dolzarb muammolari bilan shug'ullangan ilm dargohi Markaziy Osiyoda shakllangan qadimiy ilmiy-ma'rifiy analarini davom ettirib, jahon ilm-fani taraqqiyotida munosib o'rin egalladi.

Ikkinchi Sharq Rennessansi Sohibqiron Amir Temur va Buyuk Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan (XIV–XVI asr) davrga to'g'ri keladi. O'sha davrda Movarounnahr hukmdori Muhammad Tarag'ay ilk musulmon akademiyasi – Ulug'bek madrasasiga asos soladi.

**"Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamlar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'radi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, o'z ikrom-u hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritir ediki, bu bahsida insof-u hismat bo'lardi..."**

Ibn ARABSHOH

Ko'ryapsizmi, bizning xalqimiz nafaqat maktab-madrasa ko'rgan, balki akademiya ko'rgan xalqdir.

Agar jadedlik harakati shafqatsizlarcha bostirilmaganda, yangi zamon ilmini egallagan, jahon tajribasini o'rgangan fozillar yo'q qilinmaganda edi, O'zbekistonda akademiya maqomidagi muassasa etarqoq ochilgan bo'lar edi. Shunga qaramay, aytilish lozimki, mintaqamizda o'z milliy akademiyasiga ega bo'lgan birinchi davlat bizmiz. Bunda ham aynan jadid olimlarning shogirdlari mehnati va salohiyati muhim rol o'ynagan.

Siz eslatgan 1943-yilgacha ham salmoqli yo'l bosib o'tilgan. Xususan, Fanlar akademiyasini tashkil etish yo'lidagi birinchi muhim qadam 1932-yilda Respublika Fanlar qo'mitasining tashkil etilishi bo'ldi. 1940-yilga kelib, ushbu qo'mita SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali-ga aylantirildi. Bu vaqtda respublikada 19 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 23 ta ilmiy stansiya, 11 ta muzey va bir qator boshqa muassasalar faoliyat ko'rsatardi. Nihoyat, 1943-yil 27-sentyabrda SSSR Xalq Komissarlari Kengashining "SSSR Fanlar akademiyasining Toshkentdagi O'zbekiston filialini O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasini etib qayta tashkil etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Shu yili 4-noyabrda akademiyaning tantanali ochilishi bo'lib o'tdi.

– Ustoz, ma'lumotlarga ko'ra, bugun barcha davlatda fanlar akademiyasi mavjud emas. Boisi – bu qadar katta va keng qamrovli tuzilmani saqlab turish uchun hazilakam kadr va mablag' talab qilinmaydi. Shukrki, mamlakatimiz Akademiyani saqlab qolish emas, rivojlantirish bosqichida. Ammo vaziyat har doim ham mana shunday barqaror va o'suvchan bo'lmagan. Umringizning qariyb yarim asri Fanlar akademiyasi bilan bog'liq. Burungi va bugungi davr tafovuti haqida nima deya olasiz?

– Bu bor gap. Yaqin tarix yurtimizda fanga e'tibor susayib ketganiga guvohlik beradi. Ilm-fanga nisbatan 2000-yillarda boshlangan befarqlik 2016-yilga kelib Fanlar akademiyasini yopilish arafasiga keltirib

qo'ydi. Masalan, Romanovskiy nomidagi Matematika instituti 1943-yilda, Fanlar akademiyasi bilan bab-baravar tashkil etilgan edi. Uni 2012-yilda akademiya tarkibidan chiqarib, Milliy universitetga o'tkazishdi. Har holda institut maqomini saqlab qoldik. Afsuski, boshqa katta-katta institutlar, masalan, Yadro fizikasi, Fizika-texnika, Elektronika institutlari yopilib ketdi. Xodimlari oliy o'quv yurtlariga laborant bo'lib o'tishga majbur bo'ldi. Hatto, yagona yadro reaktori o'chirilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga o'tkazib yuborildi. Gumanitar institutlar esa oliy ta'lim tizimiga bo'ysundirildi. Qolgan kimyo, biologiyaga taalluqli institutlar bo'lib, ularning taqdiri noma'lum bo'lib turgan edi... Endi aytilsa, gap ko'p. Eng yomoni, ilmiy maktablar kelajagi xavf ostida qoldi: nuroniy olimlar oramizdan keta boshladi, o'rta yoshlilar turg'un holga tushib qoldi, yoshlar ilm yo'lini chetlab o'ta boshladi. Bu ahvolda tashqaridan ta'sir bo'lmasa ham ilmiy muhit ichidan yemirilish ketishi mumkin.

Shunday pallada O'zbekiston ilmiy doirasida yemirilish emas, evrilish yuz berdi. 2016-yilning 30-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning yetakchilim-fan namoyandalari bilan uchrashdi. Unda qator dolzarb masalalar qatorida ilm-fan davlat byudjetiga yuk emas, balki iqtisodiyotimizning barcha sohalarida taraqqiyotida ahamiyati g'oyat katta ekanini ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari bu borada birinchi galda Fanlar akademiyasi va olimlarga suyanishini, fan va ishlab chiqarish hamkorligi bugun nihoyatda dolzarb ekanini alohida qayd etdi.

Akademiyaning ustunlari akademiklar hisoblanadi. Deylik, men 1995-yilda akademik bo'lib saylangan edim. Unda eng yosh akademik sifatida 42 yoshda edim. Shundan keyin 22 yil davomida biror marta saylov bo'lmadi. Aytaylik, 50–55 yoshda akademik bo'lganlar sakson yoshga yaqinlashib qoldi, keyingi avlod akademiklari tasdiqlanmadi. 2017-yildan boshlab oldinma-kechin Prezidentimizning farmonlari, qarorlari chiqq boshladiki, shu asosda Akademiya tubdan qayta bunyod etildi. Institutlar, laboratoriyalar o'z joyiga qaytarildi. Shu voqealarga ham, mana, o'n yil to'lyapti.

Ko'plab yutuq va yuqori natijalarni ko'lg a kiritganimizga qaramay, O'zbekiston ilm-fani hali Prezidentimiz belgilab bergan marraga erishganicha yo'q. Chunki ilm dunyosiy vazminlik, sovuqqonlik, sabr va uzluksizlikni talab qiladi. Va albatta, e'tibor va sharoitni! Muhimi, turg'unlikdan chiqib ketdik, ol'ga yurishni boshladik.

Quvonarlisi: xalqimizda, oilalarda mentallit et o'zgardi. Bilimga, ta'limga e'tibor kuchaydi. Oldin "Ey, o'sha darsingni keyin qilarsan, borib, qo'y boq, sigirni sog'ib kel", "Kitob o'qib, shahar olib beramiding, undan ko'ra bozorga chiq, rozg'orga foydang tegsin", deyilardi. Ta'lim tizimi esa o'quv yili boshidan darsni emas, paxta terimini o'ylardi... Hozir-chi? O'ta-onalarning o'zi o'g'il bo'lsin, qiz bo'lsin, pul va vaqtini ayamay bolalarini o'qiyapti. Goh chet tiliga, goh ay-tiga, goh zamonaviy kasb-hunarga... Buning yana bir sababi: aholining farovonlik darajasi ko'tarilganida.

– Faoliyatingiz davomida fan yo'lga adashib kirib qolgan, nedir yo'llar bilan qulay o'rinlarga joylashib ilmi kashshoflik emas, hashar deb bildirgan toifalarga ham duch kelgan bo'lsangiz kerak.

– Og'ir muammoni ko'tardingiz. Bu og'riq meni ko'pdan beri qiynaydi. Aytib o'tilganidek, ilm kishilariga e'tibor kuchaydi, imtiyozlar yaratildi. Bu bir tomondan haqiqiy olimlarni yo'llab-quvvatlayotgan, yangi kashfiyot va ixtirolarga qanot berayotgan bo'lsa, ikkinchi

tomondan, bu ishonchni, imkoniyatlarni suiiste'mol qilishga ham olib kelyapti.

Olti yil davomida Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK)ning raisi bo'lganman. Bu 1997–2003-yillardagi gap. O'shanda bir yilda O'zbekiston bo'yicha yuztacha doktorlik himoyasi bo'lardi, ko'pi bilan 600 ta fan nomzodligi himoyasi o'tardi. Keyingi yillarda bu ko'rsatgich o'n barobar oshib ketdi. Ikki barobar ham emas, o'n barobar! Bu quvonarli holat! Biroq OAKning prezidiumi a'zosi sifatida ko'rdim, ko'p ishlarda yuzakilik, bir yoqlamalik, plagiat avj olib ketdi. Hatto, chet eldan tayyor dissertatsiyani ko'chirib olib, himoya qilganlarni ko'rdim. Shuning uchun navbatdagi isloh to'loqini aynan shu masalaga qaratish kerak.

Qiziq-da, hozir rahbar kadrlar ilmiy daraja pog'onalaridan zinadan ko'tarilganday ko'tarilib ketyapti. Ikki yilda falsafa doktori, yana uch yildan keyin fan doktori. Qanaqasiga? Rahbar odam qachon ilm qiladi? Unda zimmasidagi ishlarni kim bajaradi? O'zim ilm yo'nalishida rahbarman, menga ham vaqt yetishmaydi. Amaldorning ilmi bo'lgani yaxshi, unday odamlar ko'paysin. Lekin quruq qog'oz bilan ish bitmaydi. Endi ulardan nima foyda fanga? Ikki o'rtada O'zbekiston fanining obro'si tushgani qoladi. Chunki saviasiz maqolalar ko'rsatkichi ham, plagiat materiallar ham hisobga olib boriladi. Shunda o'zbekistonlik "olim"larning "karomat"lari foizlarda aks etib tursa, fanimiz uchun sharmandagarchilik-ku.

– Muhtaram Prezidentimiz yoshlarga katta umid bog'lab, oltin avlod deb ulug'layapti. Siz aytgan nuqsonlarni bartaraf etish, tabiiyki, yoshlar zimmasiga ham tushadi. Siz Fanlar akademiyasi kelajagini qaysi ustuvor yo'nalishlarda ko'rsasiz?

– Kelajak so'zi yoshlik, yoshlar so'zi bilan egiz. Garchi orada ko'p vaqt yo'qotgan bo'lsak-da, uning o'rnini to'ldirish uchun iqtidorli yigit-qizlarni ilmga jalb qilish, tarbiyalash, yo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga baholi qudrat hissa qo'shib kelmog'damiz.

Fan olimpiadalarni misol keltiray. Avvallari g'oliblarga "Faxriy yorliq" berilardi, lekin maddiy rag'batlantirish bo'lmasdi. Juda ko'ngli kelib qolsa, tashkilotchilar o'quvchilarga bepul oromgoh yo'llanmasi yoki biror maishiy texnika vositasini tutqazib yuborardi. Bular bolaning mehnatiga, to'kkan ko'z nuriga arziydimi? Lekin bugun bu borada ham vaziyat o'zgardi.

Tarixda birinchi marta "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori imzolandi. Natijada, xalqaro olimpiadalar g'oliblari va alohida e'tibor qaratishini so'rayman, ularning o'qituvchilari katta miqdordagi bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlana boshladi. Misol uchun, Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi Daler Rahimov qarorga muvofiq qator olimpiadalaridagi yutuqlari uchun o'tgan yili 1 milliard 40 million so'm bilan mukofotlandi. Bu tushga ham kirmagan miqdor!

Oliy ta'limga e'tibor kuchaydi. Oldin maktab bitiruvchilarining bor-yo'g'i 8 foizida institut-universitetlarga kirish imkoniyati bo'lgan. Chunki reja shunaqa edi. Endi davlat oliy o'quv yurtlarida yo'nalishlar va kvotalar oshirildi, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochildi, xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratildi. Bu, o'z navbatida, fan uchun katta poydevor. Akademik Sarimsoqov aytardi: "Fan – bu ko'l. Ko'lni, demak, boqib turadigan bu daryolar. Daryolar kelmasa, ko'l botqoqqa aylana qoladi". Ana shu daryolar oliy ta'limga.

Ilmda shunday gap bor: ilmiy jamoada hammasi yoshi kattalar bo'lsa, bu tragediya; agar hammasi yoshlar bo'lsa, komediya; agar ham kattalar, ham o'rta yosh, ham yoshlar bo'lsa, bu simfoniya. Bizga shu kerak aslida! Hozir shunga erishyapmiz. Shuning uchun fanda ham katta yutuqlarimiz bor.

**"Markaz o'zining mana shunday tarixiy missiyasini yuksak saviyada ado etishi uchun men ilm-fan va ma'naviyat fidoyilariga – hurmatli olim va tadqiqotchilarga, sho'ir va adiblar, diniy ulamolar, rejissyor va rassomlar, jurnalistlarga, ijodkor yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman:**

**Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.**

**Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko'rsatuvlar: uch ming yillik tarix va madaniyatning so'nmas ovozi bo'lib dunyoga taralsin!"**

**Shavkat MIRZIYOYEV (O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimidagi nutqdan)**

Faxr va quvonch bilan tilga olinadigan yana bir voqea O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi bo'ldi. Davlatimiz rahbari markaz qurilishi bilan tanishish jarayonida biz olimlarga qarata bu yerni boyitish borasida asosiy mehnat yuki olimlarga tushishini ta'kidlagan edi. Mana, ochilish marosimida ham ilm-fan sohasi vakillarini alohida qayd etib o'tdi.

– Matematiklar garchi aniqlikni xushlasa ham, tasavvurga erk berish mumkin-ku. Agar Sizza o'tmishga qaytish imkoni bo'lsa, hayotingizni o'zgartirgan bo'larmidingiz?

– Shu hayotimni qaytargan bo'lardim. Hech qanday o'zgarishsiz. 90-yillarda yaxshi-yaxshi hamkasblarim o'zini bozorga urdi, chet elga chiqib ketdi. Men sohamni o'zgartirmadim. Buning boshqa tomoni ham bo'lishi mumkin. Masalan, matematika shunday sohaki, unga juda katta laboratoriyalar, qimmatbaho uskunalar kerak emas. Faqat miya bo'lsa bo'ladi, kompyuter bo'lsa bo'ladi. Shuning uchun matematika nisbatan saqlangan-da. Lekin amaliyotga yaqin fizika, biologiya kabi soha vakillari juda qiynaldi.

Hayotda shunday davrlar bo'ladi, ikki ko'cha boshda taraddudda turasiz. Ana shu tanlov keyingi taqdiringizni hal qiladi. Menda shunaqa bo'lgan.

80-yillarda yosh fan nomzodi edim. Sobiq ittifoq paytida AQSH o'rtasida munosabatlar ilqilashib, 10 oyga kadr almashish tajribasi bo'lgan. Meni ham Kaliforniya universitetiga tavsiya qilishdi. Yosh oilamiz, farzandimiz bor. Akademiyaga ishga o'tgan paytim edi. Moskvaga borsam, "Siz endi akademiya ruxsat olib keling", deyishdi. Ruxsat tegdi shekilli, yana Moskvaga qaytib keldim. Aeroportga bordim. Registratsiyada tursam, xalqaro bo'lim boshlig'i kimnidir qidiraypti ekan. Meni ko'rib qoldi-da: "Ey, yaxshi ketib qolmasiz", dedi. "Ha, nima?" desam, "Yo'q, rahbar sizni tushunmabdi. Akademiya orqali yuborsa roziman, Minvuz orqali borishiga ruxsat bera olmayman, deb aytibdi. Shuning uchun bilingizni topshiring, sizga ruxsat yo'q", deyishdi. Yo'ldan qaytarishdi. Qaytib kelib Fanlar akademiyasi prezidenti qabuliga kirmoqchi bo'ldim. Ammo qo'yishmadi. Keyin domlalarim: "Akademiya prezidenti

yo'q degan bo'lsa, endi foydasi yo'q", deb aytishdi. Shu tariqa qolib ketdim.

Lekin bilmadim, ketganimda nima bo'lardi. Chunki mendan keyin ketganlar o'sha yerda qolib ketdi. Qaytib kelganlari ham ko'p o'tmay, u yerning mazasini bilib qoldi shekilli, ketib qolishdi. Mana, hozir o'sha yerda bir kolleja el qatori dars berib yurishib-da. Xudo biladi, men ham ketib qolganimda, balki omadim chopsa universitetda ishlar edim. Biroq hayotim boshqacha bo'lardi...

– ...va biz ham bugun O'zbekiston Qahramoni oliy darajasiga erishgan, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi faxriy unvoni hamda I darajali Davlat mukofoti sohibi Shavkat Ayupov bilan suhbat qurmayotgan bo'lar edik...

– Shuning uchun ham hozir afsuslanmayman. Men uchun o'sha tanlov juda to'g'ri qaror bo'lgan, deb o'ylayman.

– Ustoz, ilm yo'lini tanlagan yoshlarga maslahat va tilaklaringizni bilmoqchi edik.

– Birinchidan, yoshlar maktabning ilk davridanoq o'z qobiliyatini o'rganib, shakllantirib, qaysi sohaga layoqati borligini aniqlab, shunga qarab kasb tanlashini maslahat beraman. Hamma ham olim bo'lavermaydi, to'g'rimi? Shuning uchun ham kasb-hunar egallash, xususan, zamonaviy kasblarning mutaxassisiga aylanish kerak. Yurtboshimizning ham talabi shu.

Ikkinchidan, hozirdan boshlab imkon boricha maktab bergan bilimning hammasini qabul qilib olish kerak. "Menga kerak bo'lmaydi", deb o'ylagan fani vaqti kelib taqdirini o'zgartirib yuborishi mumkin. Faqat bitta fanni o'qib-o'rganib, odam bo'lish qiyn. Lekin, albatta, til bilish kerak. Ko'p iqtidorli matematik shogirdlarimiz bor, ammo til bilishmaydi. Bu esa xalqaro maydonga chiqish, jahon ilm-fani yutuqlaridan bahramand bo'lishga to'siqlik qiladi. O'zini ko'rsatish uchun ham xorijiy til bilish shart. Masalan, men asosan ingliz tilida yozaman. Hozirgi yoshlarda bir kamchilik sezdim: ingliz tilini bilganlari ruschada no'noq. Vaholanki, ilmiy adabiyotlarning ko'pi rus tilida.

Shuningdek, oliy ta'limga o'qimoqchi bo'lganlar, albatta, bilim uchun o'qishsin, diplom uchun emas.

Asosiy, qalbakilikdan qochishsin. Bugun bir qalbaki ish bilan bir nimaga erishsa, baribir ertaga buning misli chiqadi. Qing'ir ishing qiyig'i qur yildan keyin ham oshkor bo'ladi, deydi donishmand xalq.

– Rahmat, ustoz! Vaqt ajratib, qimmatli fikrlaringiz bilan o'rtoqlashganingiz uchun minnatdormiz.

– Sizlarga ham katta rahmat! Ijod va gazeta faoliyatiga ulkan zafarlar tilayman! Yana ikki og'iz gap.

Bugun Fanlar akademiyasi va boshqa ilmiy muassasalarda qaynoq jarayon kechmoqda. Ammo ularni targ'ib qilish faqat axborot xizmati yoki ilmiy nashrlarning vazifasi emas. Biz hurmatli matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan hamkorlikka doim tayyormiz. Milliy ilm-fanimiz yutuqlarini odamlarga yetkazish, dolzarb masalalarda olimlarning nuqtayi nazarini taqdim etish siz-u bizning sharafli vazifamiz.

Bu borada "Jadid" tahririyati faoliyatidan minnatdormiz! Akademiklar, fan doktorlari, xususan, yosh olimlar, xotin-qizlar bilan o'tkazayotgan suhbatlarini nafaqat gazetada, balki ijtimoiy tarmoqlarda ham tizimli targ'ib qilayotgani keng o'quvchilar ommasini milliy kontent bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy-ommabop ruhdagi ushbu materiallar o'quvchilari orasidan ilm-fanga qiziquvchan yoshlar chiqsa, bu bizning yutug'imiz.

**Suhbatdosh: Zarnigor IBROHIMOVA**

## JAHON AYVONIDA

**OYGA PARVOZ**  
NASAning Artemis II oyga parvozi doirasidagi "Orion" kosmik kemasi muvaffaqiyatli uchirildi. Uning ekipaji 10 kun davomida Oyni aylanib chiqib, Yerga qaytishi kerak.



Dasturning navbatdagi bosqichi – Artemis III doirasida 50 yildan ortiq tanaffusdan keyin insonlar yana Oyga qo'nishi kutilmoqda.

## 17 YIL KUTILGAN TUG'ILISH

Janubiy Koreyaning Inha-myon tumanida so'nggi 17 yil ichida birinchi marta chaqaloq dunyoga keldi. Bu haqda Good News Network xabar berdi.

Bola mahalliy aholi va Kambojadan kelgan immigrant ayol oilasida tug'ilgan. Yangi mehmon sharafiga markaziy ko'chaga tabrik banneri o'rnatilgan. Mahalliy hokimiyat bu voqeani




so'nggi yillarda aholisi keskin kamayib borayotgan shahar uchun "qadrii sovg'a" deb atagan.

## KRIT OSMONI QIZG'ISH TUSDA

Gretsiyaning Krit oroli osmoni Afrikadan kelgan qum bo'roni sabab to'q sariq va qizil tusga

kirdi. Bu haqda Reuters xabar berdi.

Noqulay ob-havo tufayli aviareyslar yo'nalishi o'zgartirildi: Iraklion xalqaro aeroportida ko'rish darajasi keskin pasayib, kamida



ikki samolyot boshqa aeroportlarga qo'nishga majbur bo'lgan. Ko'rish masofasi taxminan 1000 metrga

tushgani sabab ayrim reyslar kechiktirildi.

**ENG KO'P KAMERA O'RNATILGAN SHAHARLAR**  
Comparitech dunyoning yirik shaharlaridagi har 1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan videokuzatuv kameralari sonini e'lon qildi.

Birinchi o'rinni Hindistonning Haydarobod shahri egallagan – har 1000 kishiga 79 ta kamera. Undan keyin Indaur (72) va Bangalor (41) keladi. Jami hisobda bu shaharlarda 1,7 milliondan ortiq kamera o'rnatilgan. G'arb mamlakatlari ichida eng



ko'p kuzatiladigan shahar London bo'lib, u umumiy reytingda 11-o'rinni egallaydi.

Qayd etish joiz, Xitoyning ayrim shaharlari bo'yicha ma'lumotlar axborot yopiqligi sababli mavjud emas. Shunga qaramay, baholashlarga ko'ra, mamlakatda har ming aholiga 494 ta kamera (har ikki kishiga bittadan) to'g'ri kelishi taxmin qilingan.



## MILLAT FIDOYLARI

1938-yil 5-oktyabr kuni Toshkentda navbatdagi hukm ijro etildi. SSSR prokurori Vishinskiy qarori bilan yana bir mahkum – endigina 35 yoshni qarshi olgan Andijon farzandi Komiljon Alimov qatlgohda o'tib tashlandi. U asli kim edi? Bu savolga javob izlash asnosida uning qisqa, biroq ziddiyatlarga to'la hayot yo'li va faoliyatiga yuzlanamiz.

Komiljon Alimov 1903-yili Andijon shahri Eski Kapa mahallasida, ishchi oilasida tug'ildi. Bobosi yersiz dehqon, otasi ishchi ham sartarosh – ro'zg'or shuning ortidan yurib turardi. Bu kabi oilalarda bolalar bolalik ko'rmay, qo'li ishga kelib qolgan borki, o'zini mehnatga urar, tirikchilik g'ami ularni shu taxlit tez ulg'aytirib qo'yardi. Komiljonning suyagi shunday muhitda qotdi. Qurilish ishlariga qiziqib, duradgorlikni egallashida tog'asining xizmati katta bo'ldi. 1916-1917-yillarda u bir paytning o'zida ham ishlab, ham o'qirdi. Inqilobdan keyingi yillarda jamiyatda yangi tashkilotlar, yangi idoralar paydo bo'ldi. Jarayonga ko'plab yoshlar, jumladan, Komiljon Alimov ham qo'shildi. U sovet va partiya organlari hamda kasaba uyushmalarida faoliyat ko'rsata boshladi. Andijonda ishchilar uyushmasi raisi, rayon kasaba uyushmasi kotibi, o'quvchilar uyushmasi raisi kabi lavozimlarda ishladi. Uyezd revolyutsion komiteti a'zosi va rayon partiya komiteti raisi sifatida ham faoliyat yuritdi. Aynan shu yillar uning siyosiy qarashlari shakllangan davr bo'ldi.

1917-yildan keyin Turkiston shaharlarida siyosiy hayot jadal tus oldi. Bu paytda Muvaqqat hukumat hokimiyat tepasida bo'lib, uning bosh vaziri Kerenskiy nomi Turkistonda ham keng tanilgan edi. Biroq yangi hukumat siyosati jamiyatda bir xil qabul qilinmadi, natijada Andijonda turli guruhlarda o'z qarashlarini ilgari surishga intilgan holda faollik ko'rsata boshladi. Shunday sharoitda Komiljon Alimov siyosiy targ'ibot ishlarida qatnashgani haqida hujjatlarida ma'lumotlar uchraydi. Aytishicha, Kerenskiy hukumatiga qarshi siyosiy varaqalar tayyorlanib, "Sho'royi Islomiy" nomi bilan tarqatilgan. Ularda muvaqqat hukumat tanqid qilinib, turli tashkilotlar birlashishga chaqirilgan. Hatto bu murojaatlar telegraf orqali Moskva va Boku shaharlariga ham yuborilgan qayd etilgan.

Bundan tashqari, hududda turli tashkilotlar o'rtasida siyosiy ustunlik uchun kurash tobora kuchayib borayotgan edi. Shu sharoitda ishchilardan iborat guruh "Erkin fuqarolar ittifoqi"ni tashkil etdi. Uyushma 12 ta kengashni birlashtirgan bo'lib, Komiljon Alimov uning kotibi va hay'at a'zolaridan biri sifatida faoliyat yuritgan. Holat shahardagi turli qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarni ham taranglashtirdi. Qayd etilishicha, andijonlik mashhur boylardan Mirkomil Mirmo'minboyev va Oxlibek Talixbekov ushbu harakatlarga qarshi chiqqan. Shu zayl ular o'rtasidagi ziddiyatlar tobora chuqurlashib borgan.

Talabalar kengashi kanselyariyasida o'tkazilgan yig'ilishlardan birida ishchi deputatlarini soveti ishtirokida masala keskin qo'yiladi. Yig'ilish qatnashchilari Mirkomil Mirmo'minboyev va Oxlibek Talixbekovni hibsga olish haqida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror shaharda shakllanayotgan yangi hokimiyatning eski ijtimoiy qatlamlar bilan ochiq to'qnashuvini ifoda etar

## TUHMAT TOSHNI YORADI



edi. Keyinchalik ushbu qarorga daxldor shaxslar taqdiri turlicha kechgan: Mirmo'minboyev bolsheviklar tomonidan o'tib tashlangan, Talixbekov esa Qoshg'arga – Xitoy hududiga chiqib ketgan. Ayni shu paytda Komiljon Alimov Andijonda ishchi deputatlari soveti bilan bog'liq ishlarda qatnashgan. Shuning uchun bu kabi voqealar uning dunyoqarashi va keyingi yo'lga ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

1918-yil 1-iyundan Komiljon Alimov bolsheviklar partiyasi safida faoliyat yuritish boshlaydi. 1919-yildan 1920-yilgacha O'sh revolyutsion komitetiga rahbarlik qilib, uyezd-shahar partiya komitetining mas'ul kotibi sifatida ham ish yuritadi. 1921-yil dekabrda Farg'ona oblast partiya komitetining targ'ibot bo'limida ish boshlagan bo'lsa, ko'p o'tmay – 1922-yil 7-yanvarda bo'lim mudiri o'rinbosari vazifasiga tayinlanadi. 1922-yil bahoriga kelib yana bir qancha lavozimlar zimmasiga yuklanadi: avval Namangan uyezd-shahar partiya komitetining mas'ul kotibi, keyin O'sh uyezd-shahar partiya komiteti bo'lim mudiri sifatida ishlaydi.

1922-yil 3-iyunda u Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti ixtiyoriga olinib, zaxira kadrlar safiga kiritiladi. Bir oy o'tgach, maxsus komissiya qarori bilan Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan Farg'ona viloyatiga yuboriladi. Bu yerda qishloq xo'jaligini tiklash ishlarida vakil sifatida 1923-yilgacha faoliyat ko'rsatadi. 1923-yil 1-apreldan Sirdaryo oblast partiya komitetining targ'ibot va tashviqot bo'limi mudiri o'rinbosari etib tayinlanadi. Bir necha oydan keyin vaqtincha bo'lim mudiri, tashkiliy bo'lim mudiri va Turkiston Kompartiyasining 1-ayon partiya komiteti mas'ul kotibi sifatida ishlaydi.

Ku davrda u idora ishlarini bilan cheklanib qolmay, partiya tomonidan tashkil etilgan tekshiruv va qayta ko'rib chiqish ishlarida ham ishtirok etadi. Masalan, O'sh uyezdidagi partiya a'zolarini tekshirish komissiyasiga raislik qilib, Andijonda esa shu kabi tadbirlarda qatnashadi. Bu kabi ishlar o'sha davr siyosiy amaliyotining ajralmas qismi hisoblanardi. Shu tariqa, Andijon mahallasidan chiqqan oddiy ishchi oilasi farzandi qisqa vaqt ichida Turkiston partiya apparatida ma'lum tajribaga ega kadrga aylandi. Bir qarashda uning faoliyati izchil davom etayotgandek ko'rinadi.

Xalqimiz "tuhmat toshni yoradi, toshni yormasa, boshni yoradi", deb bejiz aytmagan. Kutilmaganda vaziyat butunlay boshqa tomonga burilib, kechagina shu tizimda faoliyat yuritgan ko'plab kadrlar o'sha tizimning o'zi tomonidan ayblanib, qatag'on domiga tortiladi. Ko'p holda turli ko'rsatma va tergov materiallari "dalil" sifatida baholangan. Shu kabi manbalarda qatorida jadid yetakchilaridan Munavvar qori Abdurashidxonovning 1930-yil 10-noyabrda hibsdaligida bergan ko'rsatmasi ham mavjud bo'lib, unda Komiljon Alimov nomi tilga olinadi: "Bizdan keyin kelganlar o'z o'quvchilarini tabiiy ravishda millatchilik ruhida tarbiyalaydilar. Eson Afandi: "Har bir millat, agar bu dunyoda mavjud bo'lishni istasa, o'z milliy ruhini saqlab qolishi kerak, aks holda u yo'q bo'lib ketadi", degan edi. Ayni vaqtda shuni ham ta'kidlash joizki, o'quvchilar orasida millatchilikning kuchayishi faqat millatchi o'qituvchilar faoliyat natijasi emas. Bunga misol sifatida Alimov Komiljonni keltirish mumkin. U bizning o'quvchimiz emas edi. 1927-yilda Okrug qo'mitasidagi lavozimidan tashqari unga "Voskresenskiylar" (ya'ni, ruslar) unga chidamaganini, ammo u tirik qolganini va ularning qo'lida azob chekkanini aytgan".

Komiljon Alimov nomi yana bir tergov bayonomasida – "Tarixi Salimiy" asari muallifi Mirzo Salimiyning 1930-yil 16-dekabrda ko'rsatmasida ham tilga olinadi: "1924-yil boshida men Ziyov Saidov tomonidan tashkil etilgan GAPga qo'shildim. Uning tarkibiga Komiljon Alimov ham kirgan. GAPda turli subhatlar bo'lib o'tar, millatchilik ruhida qo'shiqlar kuylanar, yevropalik ishchilar tanqid va maxsara qilingan. Xususan, Komiljon Alimov yevropalik ishchilarga taqlid qilib, bu sohada turli komediyalarni ijro etgan". Bunday ko'rsatmalar o'sha davrning murakkab siyosiy va ijtimoiy muhitini yorituvchi hujjatlar sifatida ahamiyatga ega.

1930-yillar o'rtasiga kelib siyosiy vaziyat o'zgarib, keng ko'lami tekshiruvlar natijasida ko'plab kadrlar qatorida Komiljon Alimov nomi ham tergov hujjatlarida bot-bot uchray boshladi. O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo'limi boshlig'i, davlat xavfsizligi leytenant Oq'abekov 1937-yil 15-avgustda Alimovga oid materiallarni ko'rib

chiqqan. Hujjatda Komiljon Alimov 1920-yildan VKP(b) Markaziy Komiteti huzuridagi Marksizm-leninizm instituti bilan bog'liq ta'lim jarayonida bo'lgani ko'rsatilgan.

Tergov materiallarida u "aksilingilobiy millatchi", "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi sifatida tilga olingan. Shuningdek, Qoraqalpoq oblast partiya komitetida ishlagan davrida sovet apparatini millatchi unsurlar bilan to'ldirgani va bu shaxslar Qoraqalpog'iston xalq xo'jaligiga qarshi zararkunandalik ishlarini olib borgan haqida ayblovlar bayon etilgan. Shu asosda Komiljon Alimov O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 67-moddasi bilan ayblanib, O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tasarrufidagi Siyosiy mahbuslar uyida qamoqda saqlashga qaror qilingan.

1937-yil kuziga kelib uning ishi Moskva bilan ham bog'lanadi. 3-oktyabr kuni SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi organlaridan O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligiga Moskvada hibsga olingan Komiljon Alimov haqida rasmiy xat yuboriladi. Unda mahbus Butirka turmasiga joylashtirilgani va ishini ko'rib chiqish uchun tegishli materiallar – qamoqqa olish orderi, tintuv bayonnomasi, anketa va boshqa hujjatlar yuborilgani qayd etilgan. Shu asosda unga oid alohida tergov ishi rasmiylashtirilib, tergov materiallarida u O'zbekiston hududida faoliyat yuritgan deb ko'rsatilgan "o'ng-trotskiychi millatchi aksilingilobiy tashkilot" bilan bog'langan shaxs sifatida bayon etilgan. Ayblov mazmuniga ko'ra, bu tashkilotning maqsadi O'zbekistonni Sovet Ittifoqidan ajratib olish, mamlakatda burjua-millatchilik tuzumini o'rnatish hamda sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borishdan iborat, deb ko'rsatilgan.

Tergov hujjatlarida Komiljon Alimov 1923-yildan e'tiboran mazkur tashkilot bilan aloqada bo'lgani, partiya va sovet idoralarda ishlab turgan davrida ham uning ko'rsatmalariga muvofiq harakat qilgani qayd etilgan. Shu bilan birga, unga nisbatan aholi ongiga "ruslarsiz millatchilik davlati"ni qurish g'oyasini singdirish, yevropalik xodimlarni "mustamlakachilar" sifatida talqin qilib, ularni obro'sizlantirishga urinish aybi ham qo'yilgan. Bu ayblovlar asosida Komiljon Alimovga O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining bir qator moddalari – vatanga xiyonat, aksilingilobiy faoliyat va davlatga qarshi harakatlarga oid bandlar bo'yicha jinoyi ish qo'zg'atilgan. Tergov ishlari shu tariqa 1937-yilning oxiriga qadar davom ettirilgan.

Ana shu davrdan boshlab Komiljon Alimov taqdiri qatag'on yillarining shafqatsiz jarayoniga kirib bordi... Albatta, bunday mudhish tarixiy voqealarni yosh avlod bilishi, Vatani va millat yo'lida jon fido qilgan ajdodlar xotirasini hurmat qilishi hamda bugungi farovonlik qanday mashaqqat va yo'qotishlar evaziga qo'lga kiritilganini qadrlashi zarur. Zero, "Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz" shiorini qalbimizga singdirib, shu yo'lida birlashsak, ajdodlarga munosib avlod ekanimizni namoyon etamiz.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**  
tarix fanlari doktori,  
professor

## AZIZ XOTIRA



## QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

**Usmonxo'ja To'xtaxo'jayev** – 1896-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1919-yildan bolsheviklar partiyasiga a'zo bo'lgan. Toshkent shahridagi xotin-qizlar pedagogika texnikumida direktor bo'lib ishlagan. 1929-yil 29-sentyabrda hibsga olingan. Unga "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi ayblov qo'yilgan. Tashkilot tomonidan bosmachilik harakatiga rahbarlik qilish uchun qo'rboshi Rahmonquli qarorgohiga borib, shu joydan turib Sadridinning qistovi bilan Turkiston kompartiyasi XII syezdiga ultimatum yo'llagani iddao qilinadi. RSFSR Jinoyat kodeksining 59-moddasi 2-bandi bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasining Usmonxo'ja To'xtaxo'jayevni otuvga hukm qilish to'g'risidagi qarori chiqarilgan. Usmonxo'ja To'xtaxo'jayev 1989-yil 28-martda reabilitatsiya qilingan.

**Muhitdin Husainov** – 1907-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1921-yilda komsomol a'zosi bo'lgan. Qo'qon shahridagi okrug sovet va partiya maktabida o'qigan. Jadidlarning "Botir gapchilar" tashkiloti faoliyatida qatnashganlikda, uning topshirig'i bilan yangi sho'balar tashkil etganlikda va unga rahbarlik qilganlikda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 10-bandlari bilan uni 5 yil muddatga konslagerga hukm qilgan.

**Abdulla Musabekov** – Sumsar qishlog'ida tug'ilgan. Inqilobgacha Qo'qonda, Mulla Qosim qozida xodim bo'lib xizmat qilgan. Besh yil madrasada tahsil olgach, ma'lum vaqt o'qituvchi sifatida faoliyat ham olib borgan. "Xalq gazetasi"ning tahririyat a'zosi bo'lgan. Shuningdek, Kosonsoy xalq sudyasi vazifasida ham xizmat qilgan. 1929-yil apreldan Qo'qon okrug yeri tuzuvchi bo'limida katta yer tuzuvchi bo'lib ishlagan. "Milliy ittihad" va "Milliy istiqlol" tashkilotlarining a'zosi bo'lganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. 1928-yil quvg'unga uchrab Kosonsoy rayonidan chiqarib yuborilgan. 1929-yili Qo'qonda hibsga olinib, 1931-yili OGPU SSSR kollegiyasining qarori bilan o'tib tashlangan. Abdulla Musabekov 1989-yil 21-aprelda reabilitatsiya qilingan.

**Bormirza Aliyev** – 1907-yili Melki qishlog'ida tug'ilgan. 1928-yildan partiya a'zosi. Pastdarg'om tuman partiya qo'mitasining 3-kotibi bo'lgan.

1938-yil 9-yanvarda millatchi, aksilingilobiy tashkilotga mansubligi sababli partiyadan chiqarilgan. Ichki ishlar xalq komissarligi xodimlari tomonidan hibsga olingan. 1938-yil 11-yanvarda tergov qilingan. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 58-, 64- va 67-moddalari bo'yicha ayblanib, otuvga hukm etilgan. Hukm 1938-yil 15-sentyabrda bajarilgan. Qahramonimiz 1974-yil 29-noyabrda reabilitatsiya qilingan.

**Omon Sulaymonov** – 1901-yili Asaka shahrida tug'ilgan. VKP(b)ning sobiq a'zosi bo'lgan. Bosmachilikda ishtirok etgani uchun partiyadan o'chirilgan. Yetti militsioner bilan birgalikda dushmanga qarshi otishmalarida ishtirok etgan. Qamoqqa olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. 1925-yildan 1930-yilgacha aksilingilobiy millatchi "Haqiqat" guruhi a'zosi bo'lganlikda, xalq dushmanlariga hamdardlik bildirganlikda, hukumat sha'niga uydirma gaplar aytganlikda ayblangan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "uchligi"ning 1938-yil 13-fevraldagi yig'ilishi qarori bilan otuvga hukm qilgan.

**Azizbek MAHKAMOV,**  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

**Nigoraxon AKBAROVA,**  
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonlarda).


## TARIX VA TAQDIR

Qatag'on mashinasi qurboni bo'lganlar orasida toshkentlik A'zamxo'ja Burhonxo'jayev ham bor edi. Respublika miqyosidagi tanikliq arboblardan bo'lgan bu inson 1937-yili Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromovning "dumi" sifatida hibsga olinadi va shu ketganicha uyiga qaytmaydi...

A'zamxo'ja Burhonxo'jayev qamalganidan so'ng, uning hovlisi tortib olinadi, oila boshpanasiz qoladi. Olti nafar bola bilan xor-zor bo'lgan ona "Otchopar" mahallasida buvilardan meros qolgan dala hovlidan panoh topadi. Lekin kimlarningdir qutqusi bilan u ham tortib olinib, kashshoflar dam olish uyiga aylantiriladi. Yana sargardonlik boshlanadi...

Xo'sh, A'zamxo'ja Burhonxo'jayevning aybi nimada edi? Bu savolga javob topish maqsadida o'g'lining arxividagi hujjatlar bilan tanishdik. Biroq jazoga asos bo'ladigan biror bir dalil ko'zga tashlanmadi. O'g'li Vahdatxo'ja Burhonxo'jayev otasi nihoyatda mehmondo'st, oilaparvar inson bo'lganini ta'kidlagan edi. Shu bois, dala hovlida davlat arboblari, ijodkorlar, san'atkorlar ishtirokida tez-tez mehmondorchilik bo'lib turgan. Ayniqsa, ulug' adib Abdulla Qodiriy bilan oilaviy bordi-keldi kuchli bo'lgan ekan.

Vahdatxo'ja aka shunday xotirlagan edi: "Habibullo Qodiriyning yoshi kattaroq bo'lsa ham, u kishi bilan do'stlashganmiz. Chunki biz qatag'on davrining jabrdiydalari



## QONDA BITILGAN MAKTUB

bo'lganmiz. Boshimizdan ko'p ko'rgiliklarni kechirgan, azoblarni tortgan, bolaligimiz barbod qilingan qalbi o'ksiklar edik-da. Buni shunchaki ifodalab bo'lmaydi. Buning uchun uysiz ko'chada qolib, sarson-sargardon bo'lib, bu og'ir taqdirni boshdan o'tkazib ko'rish kerak. Ana shundaygina mustaqillik, tinchlik, huzur-halovat nima, uy-joy nima, qadriga yetadi odam. Onalarimizning chekkan mashaqqatlari bir umr ko'z oldimda gavalanaveradi. Biz shunday dahshatlardan o'tib, yurug' kunlarga yetdik. Har doim balki otam tirikdir, degan umid bor edi yurakda. Farzand uchun otadan ulug' inson yo'q. Go'yo qaytib keladiganday tuyulaveradi".

A'zamxo'ja Toshkentdagi ko'pgina idoralarda faoliyat yuritadi. 1921-yili shahar harbiy komissariatida komissar o'rinbosari bo'lib ishlaydi. O'tgan asrning 30-yillari qattiq qahatchilik edi. Bilim olish, biror joyda o'qish ancha mushkul bo'lgan. Shu bois, o'sha paytda mutaxassislar tanqis edi. A'zamxo'ja Burhonxo'jayev O'zbekistonda birinchilardan

bo'lib 1929-yili Moskvadagi savdo akademiyasiga o'qishga kiradi. 1931-yili uni tugatib, Toshkentga qaytadi. 1932-yili "Turkiston" bankining boshqaruvchisi, 1933-yili esa "O'zsovxoztrest" direktori lavozimiga tayinlanadi. Uch yildan so'ng O'zbekiston SSR Markaziy apparatiga mas'ul lavozimga o'tkaziladi. 1937-yili Jizzax tumani rayjroqo'mi raisligiga saylangan qahramonimizni o'sha yiliyog Toshkentga chaqirib olib, Moliya vazirligiga ishga tayinlashadi. Bu ish joyi uning uchun so'nggisi edi.

Hibsga olish paytida unga hatto bosh kiyimini kiyishga ham ruxsat berishmagan. O'sha paytlari bosh kiyimsiz yurish uyat hisoblangan. Unga borib, xotinig: "Xo'jayiningiz uch-to'rt kunda qaytib keladi. Ba'zi bir zarur narsalarni tayyorlab bering", deyishgan. O'zi esa "Xavotir olmanglar, men albatta qaytib kelaman!" degan. Biroq...

A'zamxo'ja Burhonxo'jayevni sudsiz-so'roqsiz qamashdi. Boshqa yoqqa ko'chirishayotganda, u sobiq hamkasbini ko'rib qoladi va imo-ishora

qilib: "Shu yerga bir narsa tashlayman, uyimdagilarga yetkaz", deydi. Bu narsa uydin berib yuborilgan choyshabdan yirtib olingan parcha ekan. Unda eski o'zbek imlosida qon bilan bitilgan shunday satrlar bor edi: "Menga har xil bo'lmag'ur ayblarni qo'yishyapti. Ammo ular qo'yayotgan ayblarni bo'ynimga olmayman". Xatni qarindoshlarga tog'asi Muhammad Rahimxon o'qib bergan va o'q'rib ketib, shu zahoti yoqib yuborgan.

Qarindosh-urug'lari uni izlab, o'sha davrda juda ko'p idoralarga murojaat qilishadi. Biroq yukinib borgan joylardan ular hech qanday tayinli javob olmaydi. Ular uchun barcha eshiklar taqa-taq berk edi. Oradan qancha yillar, qancha suvlar oqib o'tganidan so'ng, 1956-yili Respublika prokuraturasidan A'zamxo'ja Burhonxo'jayevga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyi ish to'xtatilgani va u oqlangani to'g'risida ma'lumot olinadi.

Shunday yuqori lavozimlarda ishlagan inson nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishi mumkinmi? Uning qabri qayerda qoldi? Savollarga hali-hanuz javob topilganicha yo'q. Vahdatxo'ja Burhonxo'jayev otasiga qo'yilgan ayblar asossiz ekanini ich-ichidan his etardi. U O'zbekiston SSR Oliy sudiga murojaat qilgach, "Otangizga uchlik tomonidan qo'yilgan ayblar o'z isbotini topmagan, u kishi to'liq oqlandi" mazmunidagi ma'lumotnomani yubo-

rishti. Shuning o'zi farzandlarga – qalblari yaralangan, davrning ne-ne azoblarni tortgan insonlarga biron bo'lsa-da, malham bo'ldi.

Hozirgi kunda bu insonning farzandlarining aksariyati olamdan o'tgan. Vahdatxo'ja ota ham 2012-yili ota diydoriga zor bo'lib, yuragi kuyib vafot etdi. Biz hikoyamiz boshida qahatchilik yillari bo'lsa-da, A'zamxo'ja musofir yurtlarda ilm istab, el-yurtning dardiga malham bo'lish maqsadida azob-ubqatdarga dosh bergani haqida so'z ochgandik. Uning zakovati avlodlari qonida jo'sh urgani suloladan keyinchalik ham ko'plab yetuk insonlar yetishib chiqqaniga ko'rinadi. Ular mamlakatimiz ravnaqi yo'lida o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda.

Mantiqan olib qaraganda, mas'ul lavozimlarda ishlagan insonning rahbarlar bilan muluqotda bo'lishi, ularning ko'rsatmalarini bajarishi tabiiy, ayni paytda qonun taqozosi emasmi? Qolaversa, ziyoli shaxs sifatida davrining atloqi ijodkorlari bilan hamsuhbat bo'lish ham odatiy va maqtaladigan holat. Ammo taqdirning mustamlakachi qo'lida bo'lsa, pashshadan fil yasalib, fillar osmondan uchur ekan. A'zamxo'ja Burhonxo'jayevning aybi aql-idroki va millatsevarligida edi...

**Izzat AHMEDOV,**  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi



HAJV

# NARX-NAVO RAQQOSAMU?

Qishdanam chiqvoldig-ey! O'rik-lar gullab, redis bilan ko'kpiyozi pullab, xiyla yuzimizga qon yugurdi. Dehqonning qo'liga pul tushmasinda: yo "uyni ko'taraman"ga tushadi, yo to'y qilgisi kepqoladi. Meniyam qo'lim qichib, tomni ochib yuborsammi deb yurgan kunlarim.

Xotin zoti tozi itday sezgirmasmi, darrov palakatning hidini olib, tashlab qoldi: "Buncha hovliqamang, xo'jayin, hozircha tomingiz joyida, yaxshisi butun pulni pachaqlamay, Qumtepandan ikkita qo'zi opkeling. Po'choq yeb tursayam kuzgacha et bitib, pichoqqa tayyor bo'pqoladi. Balki o'zidan ko'payib, bir kamimizga yarab qolar". Shu desangiz, xotinlar boshda to'g'ri gap aytayotgandek tuyuladi-yu, oqibati ag'darilgan yetim toshbaqadai bo'pchiqadi.

Xullas, bozorga barra bodringday kirdim-u, chiqishda ushuq urgan karamday shalvirab chiqdim. Mol-qo'y mo'ljalimdan ancha baland, yiqqan pulimga qo'zi tugul, takaning soqolini ham ushatmas ekan. Kamiga bojam Otabek dalol meni ko'rishi bilan kafti qichib, chillashir mushukvachchaga o'xshagan gadik to'qlini otasini narxiga menga tiqishtirish payiga tushdi. Yana, tarvaynglab, g'o'danglaganiga iymoning qochadi!

Bayt:

Qarindosh-u, ishlari

yotnikiga o'xshaydu,

G'o'ddayib turishlari

otnikiga o'xshaydu.

(Qaralsin. Sattor Surob.

"Sayis, mayiz va dayis qissasi".

743-bet.)

Bojamning chovutidan betalafot chiqibman-u, ma'yus guzarga tushib, tikka Oqil kazzobni oldiga borib qoppam. Uyam xaridor yo'q, qontalash dokasini vertolyotni parragiday aylantirib, pashsha qo'rib o'tirgan ekan, yoniga cho'kkaladim. Gap Tramp bilan Zelenskiydan boshlanib, sarimsoq bilan turpda to'xtadi. Kazzob-qassob narx-navodan yozg'irib turgan joyida tilidan ushlandim.

– Bodring-pomidorni qo'yib turing, aka, hozir bitta qo'zi ololmay kelyapman. O'zi go'sht nimaga buncha qimmatlab ketyapti?

Qassob yetilgan buqani chamalagan-day menga boshdan oyoq xezlanib qaradi.

– Men qayoqdan bilay? Birinchidan, el qatori sotayapman. Menda hozir bir yuz qirg ming bo'lsa, atrofdayam shu. Ikkinchidan, narxni men o'ylab chiqarmiman.

Bozorniym ko'rgandirsan.

– Ko'rdim. Arzoniym bor. Chetdan kelgani. Faqat qaysi bebismillo so'ygan



ekan, deb olishga ikkilanasan odam. Chorva o'zimizda bo'laturib, dunyodan qimmat yuramizmi?

– Endi-i, aholiyam ko'paygan. Qoramol unchalikmas. Bitta sababi shu.

– Arqonni sal bo'shashtira, aybni ko'tarasiga buqalarga to'nkavorasiz-a. To'g'ri, narx-navo o'ynab, Qahani danapiday bir joyda turmaydi. Lekin evi bilan-da, akamjonim. Masalan, o'tgan yili shu mahalda qancha edi?

Oqil dandonsopli pichog'i bilan tomog'ini o'yanch qashlagancha uzoq sas bermadi. Ungayam osonmas. Har hafta yengiloyoq chigirtkadek sapchib turgan narxni kompyuter ko'tarmaydi-ku! Men esa aniq eslayman – 80 ming. Nimagaki, sinfdoshlar to'yonani 5 kilodan go'shtga chaqamiz. O'tgan bahor o'g'il to'yiga 80 mingdan tushganmiz. Bultur bir kilo go'sht 60 ming edi. Demak, ikki yilda yaqin uch barobar oshgan chiqyapti. Shularni xayoldan o'tkaza turib, qassobning tilla zanjiri bo'yini ko'zimga xunuk ko'rinib ketdi. Misr bo'pket-ey!

– Xo'p, yiliga uch-to'rt so'm qo'shsin, mayli. Narxning jittirechidek sakrashiga sabab nima deyman-da?

Shu payt tepkiaravani g'iyqillatib, Abbas mayna o'tib qoldi. Do'konga yaqinlashganda ko'chani boshiga ko'tarib baqirdi:

– Ha, Akmal chatoqning o'g'li, o'lgan sigirning yelinini pullab o'tiribsanmi?

– Cho'qib ko'rsang bilasan!

Mayna ham bekorchi ekanmi, "xo-xo"lagancha shag'alning oldidan doira yasab qaytib keldi. Na salom bor, na alik, aravasining orqa o'rindig'iga xurpayib

o'tirib oldi-da, masxaraomuz tirjaydi.

Qassobning afti nega bujmaydi desam, maynaning qorasini uzoqdan ko'riboq, javobga tayyorlanib turgan ekan.

– Nechchi marta aytaman, shumxabar, qo'pol hazil qilmagin deb. Eshitgan odam noto'g'ri tushunadi. Birinchidan, sigir emas. Ikkinchidan...

– Men nima dedim axir? Jonliqni so'yganganing keyin o'lgan bo'ladimi-yo'qmi?

– E-e-e! – Qo'l siltadi qassob, – bo'ladigan gapni gapir. Undan ko'ra manov bolaga go'sht narxini kim oshiriyotganini topib bermisanmi? Harqalay, o'zing ham mol boqasan.

– Shu kunlarda eshak boqsammi deb turibman, – mayna menga chap ko'zini qisib, o'ng ko'zi bilan qassobga imo qilib gap boshladi – Ertalab ko'chaga qo'yvoraman. Qorni to'yasa, kechga o'zi kirib kelaveradi. Xashak ber demaydi, suv demaydi. Bozoriyam chaqqon. Sharip quz'g'un halollob so'yib, shaharga tashiyapti ekan.

Meniyam aftim bujmaydi shekilli, maynavozchilikni bas qilib, jiddiy ohangga o'tdi.

– Yemish qimmat, ko'rib turibsan, Husan ko'rning nevarasi. Yaylov kam, hamma joyning egasi bor. Hozir hashak ham pul. Chorvadan naf qolmadi hisob. Deylik, boquvda to'rtta molim bor. Eng birinchi qiladigan ishim, kuzda ikki-uch traktor silos bosishim kerak – aravasi uch yarim-to'rt million so'mdan. Endi silosga aralashtirib bergani: kunjara – kilosi yetti ming so'm, to'rtta buqaga bir qop kunjara Faxriddin alkashga abetga chekushka bergandek

J.G'.BIYRON

O'Y



## GAZETA KASALLIK TARQATARMISH...

Bu voqeaga ancha bo'lgan.

Ta'tilda biznikiga kelgan jiyanim sho'xlik qilib, qo'radagi qo'ylarni ham bezor qildi. Shunda otam uydan gazeta olib chiqib, qo'raning simto'riga o'qiladigan holda katta qilib osib qo'ydi, so'ng jiyanim chaqirishimni buyurdi.

Jiyanim qo'raga yo'yib qo'yilgan gazetani ko'rib, "Nega qo'yxonaga gazeta ilib qo'yilgan?" deb so'rganida, otam: "Sen ta'tilningni bekor o'tkazayapsan. Qara, men o'qib bo'lgan gazetalarimni har doim qo'raga ilib qo'yaman. Qo'ylar ham gazeta o'qiyotgan bir paytda, nahotki sen o'qib, bilim olishga fursat topmasang?" deb javob bergan edi.

Bu so'zlar hamon qulog'im ostida jaranglaydi. Shu hangomadan keyin oramizda: "Otamning qo'ylari ham gazeta o'qirdi, sen-chi?" degan istehzoli tanbeh paydo bo'ldi. Bu gaplarni eshitmaslik uchun barcha qarindosh-urug', yosh-yalaglar mutolaaga kirishardik...

Tush payti uyga qaytdim. Darvozaga qistirib qo'yilgan gazetani ko'rdim-u, olmay, uyga kirishga shoshildim. Kechga yaqin yodimga tushib, ko'chaga chiqsam – kechikibman. Yo'q, gazetani kimdir olib ketmagan ekan, yangam yirtib tashlabdi. Amakimning aytishicha, bu "kasallik tarqatadigan gazeta" emish, uni yirtib, yoqib yuborish kerak ekan. Hamma shunday qilayotganmish. Gazetaning yarmi chiqindi idishida, qolgan yarmi shamolda ko'chaniq turli tomonlariga uchib ketgan edi. Kattaroq bo'laklarini yig'ib olib o'qib ko'rdim. Sahifalarning deyarli barchasi kasalliklar, shifokorlar va dori-darmon reklamalari bilan to'lib-toshgan. Gazetaning nashriyat manzili yo'q. Qo'shnilar esa o'z gazetalarini allaqachon tandirga tutatqi qilib yuboribdi.

Albatta, "gazeta kasallik tarqatadi", degan da'vo aqlga sig'maydi. Aksincha, gazeta inson tafakkurini charxlaydi, dunyoqarashini kengaytiradi, ham ko'z nurini, ham aql nurini oshiradi. Aslida, muammo gazetada emas, o'qishga bo'lgan munosabatimizda. Ijtimoiy tarmoqlardagi shov-shuvli, tekshirilmagan xabarlardan ko'ra, gazeta sahifalaridagi

ma'lumotlar ishonchli. Shu bois, tijoratdilar, tashkilot va muassasalar o'z xizmatlarini gazetalar orqali targ'ib qilishga intilmoqda. Rostini aytsak, ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on va behayolik oddiy holga aylanib bormoqda. Gazeta esa har birimizdan mulohazani talab qiladi.

Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Butun bir gazeta sahifalarini dori vositalari, kasalliklar tarixi, alomatlar va shifokorlar reklamasi bilan to'ldirish ham to'g'ri emas. Chunki kasallik alomatlarini o'qigan inson o'zini o'sha dardga chalinganday his qilib, ruhiy tushkunlikka tushishi mumkin. Reklama qilayotgan dori shifokor maslahatsiz qabul qilib, foyda o'rninga zarar ko'rayotganlar oz emas. "Dok-1 Maks" fojiasi odamning yuragini hamon zirqatadi. Shunday holatlardan keyin ham ayrim tijoriy gazetalarining dori-darmon reklamasi bilan to'lib-toshishi aholi orasida ruhiy xavotir, qo'rquv va ishonchsizlikni kuchaytirib, aslida ma'rifati va ma'naviyat tarqatishi lozim bo'lgan gazetachilik obro'siga putur yetkazayotganini ham tan olish kerak. Bozorlarda gazeta ustiga terilgan mevalarni, gazetaga o'ralgan ziravorlar-u dudlangan baliqlarni ko'rganimda, ich-ichimdan achinaman...

Har yili tashkilot va korxonalar respublika va hududiy gazeta-jurnallarga obuna bo'ladi. Ammo ayrim muassasalarda gazetalar taxlam holicha javonlarda qolib ketishi juda achinarli. Axir, gazeta o'qish uchun chiqariladi-ku. Agar rahbarlar gazetalarini qabulxonalariga qo'ysa, kirgan odam haqqoniy axborot, tahliliy va tanqidiy maqolalar orqali fikr yuritish imkoniga ega bo'ladi. Men o'zim "Yangi Sirdaryo" gazetasini qarindoshlarim, qo'shnilarim, umuman, ko'plab insonlarga, albatta, beraman. Yana bir karra tafakkur qilaylik. Gazeta bizga voqealarga mustaqil fikr bilan yondashishni, tahlil qilishni, tanqidiy mulohaza yuritishni o'rgatadi. Bir so'z bilan aytganda, gazeta ma'rifat tarqatadi!

Bahrom BOYMURODOV

## Ayoliga yengilgan shoir

Bir shoirning ayoli matematika o'qituvchisi ekan. Shoirliги tutib, unga gap qotib qolibdi:

– Ikki karra ikki nechchi bo'ladi?

– Nima, shuni ham bilmaydi, deb o'ylaysizmi? – debdi xotini.

– Bilsang, ayt.

– Ikki karra ikki to'rt bo'ladi, albatta.

– To'ppa-to'g'ri, – debdi u, – lekin:

**Ikki karra ikki to'rt bo'ladi,**

**Xotinlar miyasi**

**mo'rt bo'ladi.**

Bu she'rni to'qiganiga xursand bo'lib, g'olib nigoh bilan xotiniga boqibdi. Ayoli ham anoyi emas ekan.

– Xo'sh, shoirim, keling,

o'zingizni ham bir sinaylik. Ikki karra ikki nechchi bo'ladi?

– Men senga o'xshab o'ylamay-netmay javob bermayman. Bu masalani yechish uchun avval masalaga aniqlik kiritaylik: olayotgandami yoki sotayotgandami?

– Deylik, olayotganda.

– Olayotganda bo'lsa, ikki karra ikki uch bo'ladi-da, albatta.

– To'ppa-to'g'ri, – debdi ayoli,

– lekin:

**Ikki karra ikki uch bo'ladi,**

**Erkaklar miyasi**

**puch bo'ladi.**

– Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi, deganlaridek, sen ham shoir bo'lib ketyapsanmi, nima balo? – debdi shoir.

– Shoirlikni qo'ya turaylik-da, hisob-kitobga qaytaylik. Xo'sh, sotayotganda ikki karra ikki nechchi bo'ladi?

– Sotayotganda, albatta, ikki karra ikki besh bo'ladi-da, – debdi shoir.

– To'ppa-to'g'ri, – debdi ayoli,

– lekin:

**Ikki karra ikki besh bo'ladi,**

**Erkaklar miyasi**

**bo'sh bo'ladi.**

– Dadam: "Ayoling bilan o'chakishma, baribir, yengolmaysan", degich edilar, to'g'ri aytgan ekanlar.

– Dadajon dono kishi edilar, mana, hisob – ikkiga bir bo'ldi! Albatta, yana mening foydamga!

**Sultonmurod OLIM**



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:

Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:  
Gulchehra Umarova

Adadi – 18 408

Shundan:

Kirill yozuvida – 6 785

Lotin yozuvida – 11 623

Media kuzatuvchilar – 82 142

Buyurtma: G – 440

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov  
Nigora Tosheva



Manzilmiz:

Toshkent shahri,  
Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxonasi: (71) 203-24-20  
Devonxonasi: (97) 745-03-69  
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17  
Jadid\_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyat-matbaa

aksiyodorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHDILAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI